INNOVATIVE WORLD

# ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR

## ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



Google Scholar doi zenodo OpenAIRE

+998945668868
https://innoworld.net

2024

INNOVATIVE WORLD

# «INNOVATIVE WORLD» ILMIY TADQIQOTLARNI QO'LLAB-QUVVATLASH MARKAZI

## «ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOTLAR: MUAMMO VA YECHIMLAR» NOMLI № 1-SONLI ILMIY, MASOFAVIY, ONLAYN KONFERENSIYASI

## ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYA TO'PLAMI
## СБОРНИК НАУЧНЫХ-ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЙ
## SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE COLLECTION

Google Scholar · doi digital object identifier · ResearchGate · zenodo · ADVANCED SCIENCE INDEX · OpenAIRE · Academic Resource Index ResearchBib · DRJI Directory of Research Journals Indexing

**innoworld.net**

# « ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR » NOMLI ILMIY, MASOFAVIY, ONLAYN KONFERENSIYASI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING 2020 YIL 2-MART KUNGI «ILM, MA'RIFAT VA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH YILI»DA AMALGA OSHIRISHGA OID DAVLAT DASTURI TO'G'RISIDA»GI FARMONIDA KO'ZDA TUTILGAN VAZIFALARNI IJROSINI TA'MINLASH MAQSADIDA «INNOVATIVE WORLD» MCHJ TOMONIDAN TA'SIS ETILGAN «ORIENTAL JOURNAL ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY JOURNAL (OJAMR)» ILMIY-USLUBIY JURNALINING (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI AXBOROT VA OMMAVIY KOMMUNIKASIYALARNI RIVOJLANTIRISH AGENTLIGINING 138572-SONLI GUVOHNOMA HAMDA ISSN 3030-3079) "ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR" NOMLI ILMIY, MASOFAVIY RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ONLINE KONFERENSIYASINI E'LON QILADI.

KONFERENSIYA TO'PLAMI ZENODO, OPEN AIRE, OPEN ACCESS VA INTERNET ARCHIVE BAZALARIDA INDEKSLANADI. KONFERENSIYA TO'PLAMIGA DOI RAQAMI BERILADI.

KONFERENSIYA TO'PLAMIGA QUYIDAGI YO'NALISHLAR BO'YICHA MAQOLALAR QABUL QILADI:

1. ANIQ FANLAR
2. TABIIY FANLAR
3. TEXNIKA FANLARI
4. PEDAGOGIKA FANLARI
5. IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR
6. TIBBIYOT FANLARI
7. IQTISOD FANLARI
8. QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

ESLATMA! KONFERENSIYA MATERIALLARI TO'PLAMIGA KIRITILGAN MAQOLALARDAGI RAQAMLAR, MA'LUMOTLAR HAQQONIYLIGIGA VA KELTIRILGAN IQTIBOSLAR TO'G'RILIGIGA MUALLIFLAR SHAXSAN JAVOBGARDIRLAR.

# ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA LINGVOPOETIKA TADQIQI

**Tojiboyeva Muhayyo Elmurod qizi**
mustaqil izlanuvchi

**Annotatsiya:** Maqolada hozirgi o'zbek tilshunosligida rivojlanishning yangi bosqichiga kirayotgan lingvopoetika sohasining mohiyati to'g'risida fikr yuritiladi. Shuningdek, o'zbek va jahon tilshunosligida mazkur sohada qilinayotgan tadqiqotlar, olimlarning yondashuvlari haqida ham ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** lingvopoetika, tadqiqot, kognitiv tilshunoslik, badiiy matn, lingvopoetik tahlil, tilshunoslik, badiiy asar

Аннотация: В статье рассматривается сущность области лингвопоэтики, которая вступает в новый этап развития в современном узбекском языкознании. Также представлена информация об исследованиях, проводимых в узбекской и мировой лингвистике, о подходах ученых.

Ключевые слова: лингвопоэтика, исследования, когнитивная лингвистика, художественный текст, лингвопоэтический анализ, Лингвистика, художественная литература

Annotation: the article reflects on the essence of the field of linguopoetics, which is entering a new stage of development in the current Uzbek linguistics. Also in Uzbek and world linguistics, information is provided about the research being done in this field, the approaches of scientists.

Keywords: linguopoetics, research, cognitive linguistics, artistic text, linguopoetic analysis, linguistics, fiction

Mazkur ilmiy maqolada bugungi o'zbek va jahon tilshunosligida lingvopoetikaning nazariy masalalari tushunchasining mohiyati xususida so'z boradi. O'zbek va jahon tilshunosligida lingvopoetikaga berilgan baho va mazkur hodisaga turlicha yondashuvlar hamda qilingan ilmiy ishlar haqida fikr yuritiladi.

Maqolada bugungi o'zbek va jahon tilshunosligida lingvopoetikaning nazariy masalalari tushunchasining mohiyati xususida so'z boradi. O'zbek va jahon tilshunosligida lingvopoetikaga berilgan baho va mazkur hodisaga turlicha yondashuvlar hamda qilingan ilmiy ishlar haqida fikr yuritiladi va ular qiyosiy tahlilqilinadi. Adabiyot sifatida M.Yo'ldashevning—Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi asari va lingvopetika mohiyati bilan bog`liq bo`lgan ilmiy adabiyot, monografiya va dissertatsiyalar tahlilga tortilgan.

Badiiy asar tiliga kategorial yondashuvning shakllanishi, badiiy so'zni ijodning shakl va mazmun xossalari birligida o'rganishga harakat badiiy asarni estetik va falsafiy nuqtai nazardan tushunish uchun asos bo'ldi. Jumladan, G.E.Lessing, F.Shiller, Gumboldt, A.A.Potebnya, V.V.Vinogradov, V.M.Jirmunskiy, V.Ya.Zadornova, O.S.Axmanova, G.O.Vinokur, L.V.Shcherba

ishlari o'rganildi, muhim ilmiy xulosalaridan foydalanildi. A.Xolodovichning «Adabiy til uslubshunosligi», «Poetikada lisoniy usul» asarlarida, nemis olimi E.Koseriuning poetik tilning yangi izohi kabi tushunchalarida, fransuz tilshunoslari D.Delas va J.Fiyollarning lingvistika va poetika bo'yicha yangi qo'llanmalarida, Ye.B.Artemenkoning lingvofolkloristika bo'yicha olib borgan tadqiqotlaridalingvopoetikaning filologiya ilmida alohida fan sifatida o'rganilishi yuzasidan qarashlar bayon qilingan. Zamonaviy rus tilshunosligida lingvopoetikaning nazariy masalalari tadqiqi bilan shug'ullangan olimlardan biri A.Lipgartdir.

Tilshunoslikning lingvopoetika sohasi davrning dolzarb ilmiy-nazariy masalalari, muammolari, tadqiqiy vazifalari bilan xarakterlanadi.Xususan, adabiy ijodlar, yetuk badiiyat namunalarini lingvopoetik xususiyatlar nuqtai nazaridan kuzatib, o'rganib borish, bu yo'nalishdagi tahlil, talqin, baholashni izchil yo'lga qo'yish bugungi o'zbek tilshunosligining muhim vazifalaridan biridir.

Bu sohada ayniqsa o'zbek nasri namunalari tadqiqining faollashgani keying yillarda yaratilgan tilshunoslik natijalaridan ma'lum. Mustaqillik yillaridagi adabiyotimiz, uning barcha turlardagi namunalari, ayni choqda, adabiyotshunoslik va adabiy tanqid ilmlari o'z nuqtai nazari, dunyoga qarashi, mazmun-mohiyati, metod, uslub va usullariga ko'ra yangichadir. Bu jarayonda yangilanish tamoyili qizg'in kechmoqda.Adabiyotning nasri ham, she'riyati ham qator yangi, teran ijodlar, badiiy asarlar bilan boyimoqda. Binobarin, ularning eng manzur va e'tiborga sazovorlari asosida lingvopoetik tadqiqotchilikni faol yuritish maqsadga muvofiqdir.

Tabiiyki, ana shu zaruriyat bilan bog`liq dunyoqarash tilshunoslik ilmini o`qitish jarayoniga ham taalluqlidir. Bu sohani o`rganishdagi ko`plab qonun-qoidalar, til materiali doirasidagi o`zgarishlar juda sekinlik bilan amalgam oshgan bo`lsa-da, tilning sotsialingvistik jihatlari, uni amalda qo`llash jarayonining yangicha, zamonaviy talablarga muvofiqlashtirilishi hayot talabidir. Bu,dastavval, til materialidan nutq jarayonida samarali foydalanish, nutq madaniyatini yanada takomillashtirish borasida me'yoriy muammolarni ma'lum darajada hal qilish va bunga oid bilimlardan talabalarni, jamoatchilikni xabardor qilib borish bilan bog`liq.

Tilning turli qirralarini uzviy tarzda birlashtirib, uni yaxlit bir butunlik, bir sistema sifatida o`rganuvchi tilshunoslik asrimizning 20-yillarida shakllandi va sistem-struktur tilshunoslik nomi bilan mashhur bo`ldi. Shuni aytib o`tish kerakki, Ferdinant de Sossyur asos solgan XX asr sistem tilshunosligi bag`rida o`nlab yangi lingvistik oqim va maktablar vujudga keldi, ularda ulkan zamonaviy yutuqlar qo`lga kiritildi.

Til ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida doimo qisqalik va osonlikka intiladi. Inson uchun qanday talaffuz qilish to'g'riligidan ko'ra, ko'proq qanday talaffuz qilish qulay va osonligi muhimroq. Tildagi fonetik va leksik so'zlarni qo'llash bir qancha osonlikni va ravonlikni ta'minlaydi.

Badiiy asarning bosh unsuri so'z, umuman, til ekan, ana shu asarning chinakam san'at darajasiga ko'tara olishida uning tili, muallifning til vositalarini qay darajada qo'llay olishi asosiy omildir. Adabiyotimizda iz qoldirgan har bir ijodkor asarlarining tilini o'rganish, birinchidan, adibning mahoratini o'rganish, shu bilan birga, tilimiz rivojiga uning asarlari tili ta'sirini, tadqiqotning esa tilshunosligimiz taraqqiyotiga qay darajada ta'sir ko'rsatayotganligini belgilash ehtiyojidan kelib chiqadi.

Tabiiyki, badiiy asarni lingvopoetik tahlil qilishning bir qator tamoyillari mavjud. Badiiy matn lingvopoetikasi muammosini o'zbek tili materiallari asosida mufassal tadqiq etgan M.Yo'ldoshev lingvopoetik tahlilning quyidagi asosiy tamoyillarini ko'rsatadi: 1) shakl va mazmun birligi asosida yondashuv; 2) makon va zamon birligidan kelib chiqish; 3) umumxalq tili va adabiy til munosbati asosida baholash; 4) badiiy matnga badiiy-estetik yaxlitlik sifatida yondashuv; 5) badiiy matnda poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash; 6) badiiy matndagi eksplitsitlik va implitsitlik nisbatini aniqlash; 7) badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarining lisoniy va semantik xususiyatlarini aniqlash. Tadqiqotchi - lingvopoetik tahlilda badiiy matnda poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash muhim tamoyillardan|| ekanligini alohida ta'kidlaydi, chunki ―bunday vositalarning lingvistik va badiiy mohiyatini ochib berish orqali badiiy mazmunning shakllanishi va ifodalanishi mexanizmlarini aniq tasavvur qilish mumkin. Chindan ham, badiiy matnning estetik qimmatini bevosita belgilash va baholashda ayni shu tamoyil qulay va boshqa tamoyillar asosida ish ko'rishda ham zamin vazifasini bajarishi mumkin.

Buning ustiga, mazkur tamoyil asosida lisoniy badiiyatni tasavvur qila olish boshlovchi tahlilchiga ham og'irlik tug'dirmaydi, chunki tahlilga tortiladigan ob'ekt matndagi konkret til birliklaridir.

Albatta, badiiy mazmunning ifodalanishida tilning fonetik-fonologik, morfemik, leksik, morfologik, sintaktik va hatto supersintaktik kabi barcha sathi birliklari ishtirok etadi. Ammo ta'kidlash joizki, bu birliklarning, hech bir istisnosiz, hammasi ham ijodkorning badiiy niyatiga bevosita va bir xilda xizmat qilmaydi. Ijodkor tomonidan uning mahorati darajasiga ko'ra yaratilgan muayyan qulay badiiy kontekst qurshovida mazkur birliklarning ayrimlari alohida badiiy-estetik ta'kid oladi.

Lingvopoetik tahlilning tamalida ayni shu tamoyil, ya'ni poetik aktuallashgan poetik mazmun bilan yukungan til birliklarini aniqlash va ularni tegishli tarzda baholash tamoyili turmog'i maqsadga muvofiqdir. Bunday tahlil ijodkorning tilimizning tuganmas boyligi imkoniyatlaridan foydalanishdagi mahoratini ko'rsatish barobarida badiiy niyat xizmatidagi birliklarning butun mohiyatini ochishga, xolis baholashga ko'maklashadi. Ayniqsa, bunday tahlil ulkan so'z san'atkorlarining asarlari asosida olib borilsa, badiiy til mahoratidagi ibratli jihatlar baralla namoyon bo'ladi.

Reference:

1. Karimova R.A. Semantiko strukturnaya organizatsiya teksta(na materiale ustnix spontannix i pismennix tekstov) : Avtoref. diss... d..ra fil. auk. - M.: 1992, s.27.
2. To'xsonov M. Mikromatn va uning kommunikativ yahlitligi // O'zbek tili va adabiyoti, 1990, 5 - son, 66 – 69 – betlar.
3. Tuxsanov M.Mikrotekst i sistema virajeniya ego kogenetnosti v uzbekskoy xudojestvennoy rechi: Avtoref.diss. ...k-ta filol.nauk. -Tashkent, 1987.
4. TurniyozovN. Matn lingvistikasi (ma'ruzalar matni). -Samarqand, 2004
5. Turniyazova Sh.Hozirgi o'zbek tilida matn shakllanishining derivatsion xususiyatlari. Filol.fan.nomz...dis.-Toshkent, 2010.
6. Hakimov M.O'zbek tilida matnning pragmatik talqini: Filol. fan. d-ri ...diss. – Toshkent, 2001.

# PEDAGOGIK TA’LIM SIFATINI BOSHQARISH VA RAQOBATBARDOSHLIGINI TAKOMILLASHTIRISHA KLASTER YONDASHUVI

**Mamashokirov Muhammadshukur Abdumuxtorovich**
"Andijon taraqqiyot" nodavlat umumta’lim maktabi
Ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha direktor maslaxatchisi

**ANNOTATSIYA**

Maqolada klaster yondashuvi asosida pedagogik ta’lim sifatini boshqarish va raqobatbardoshligini takomillashtirish imkoniyatlari atroflicha tahlil qilingan. Sifat muayyan narsa-hodisaning (ob’ektning) bir holatdan ikkinchi yaxshiroq holatga o‘tishini ta’minlaydigan xususiyatlar majmui deyish mumkin. Shunday ekan, sifat ob’ektda dinamik holatda kechishi mumkin ekan. Ob’ektning yaxshiroq holatga o‘tishini ta’minlaydigan xususiyatlar ustida, ularning barqarorligi va salmog‘ini oshirish ustida ishlash sifatni ta’minlaydi. Bu jarayon sohaning rivojlanishi va raqobatning kuchayishi sharoitida doimo murakkablashib boraveradi. Bu esa sifat muntazam yangilanib boradigan jarayon ekanligini va uni boshqarish soha mutaxassislari tomonidan doimiy monitoring olib borilishi lozimligini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar**: klaster, yondashuv, pedagogik ta’lim, sifat, boshqaruv, raqobatbardoshlik, takomillashtirish.

**KIRISh** Ta’lim sifati va uni boshqarish muammosi barcha davrlarda pedagogikaning asosiy tadqiqot ob’ektlaridan biri bo‘lib kelgan. Bu muammoni o‘rganish “sifat”, “ta’lim sifatini boshqarish” tushunchalarining mazmun-mohiyatini tahlil va tavsif qilishni talab qiladi. “Mejdunarodnыe standartы: Sbornik noвых versiy standartov ISO serii 9000” to‘plamida sifat tushunchasi “ob’ektning belgilangan va kutilgan ehtiyojlarini qondirish qobiliyati bilan bog‘liq xususiyatlar to‘plami”dan iborat ekanligi qayd etilgan. [3] Demak, sifat muayyan narsa-hodisaning (ob’ektning) bir holatdan ikkinchi yaxshiroq holatga o‘tishini ta’minlaydigan xususiyatlar majmui deyish mumkin.

Shunday ekan, sifat ob’ektda dinamik holatda kechishi mumkin ekan. Ob’ektning yaxshiroq holatga o‘tishini ta’minlaydigan xususiyatlar ustida, ularning barqarorligi va salmog‘ini oshirish ustida ishlash sifatni ta’minlaydi. Bu jarayon sohaning rivojlanishi va raqobatning kuchayishi sharoitida doimo murakkablashib boraveradi. Bu esa sifat muntazam yangilanib boradigan jarayon ekanligini va uni boshqarish soha mutaxassislari tomonidan doimiy monitoring olib borilishi lozimligini ko‘rsatadi.

## ADABIYoTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYa

Tadqiqotchi Ye.I.Varchenko ta'lim sifatini boshqarishni ta'lim sifatini ta'minlash, takomillashtirish, monitoring qilish va baholashga yo'naltirilgan strategik va tezkor harakatlarning muntazam ravishda amalga oshiriladigan tizimi" [2] ekanligini e'tirof etib, ta'lim muassasasining faoliyatida ushbu omilning ahamiyatini yuqori baholaydi. Demak, ta'lim sifatini boshqarish shu soha mutaxassislaridan, avvalo, sifatni ta'minlashni (ta'lim va tarbiyani yaxshiroq holatga o'tishini ta'minlaydigan xususiyatlar ustida ishlashni), rivojlanish tamoyiliga ko'ra uni takomillashtirishni, oldingi va keyingi holatni o'zaro taqqoslash uchun doimiy monitoring qilishni va o'z faoliyatlarini ob'ektiv baholashni talab qiladi.

Ushbu faoliyat turlarini muayyan tizimga solish va buni sohaning strategiyasi, istiqbol rejalari bilan bog'lash ta'lim sifatini boshqarishni ta'minlaydi. Muayyan o'quv yurtidagi ta'lim tizimining holati va rivojlanishini tahlil qilish uchun sifat ob'ektining uzluksiz rivojlanishi davomida ijobiy o'zgarishlarni tavsiflovchi, yakuniy natijaga erishishni anglatuvchi "sifatni yaxshilash" tushunchasi muhim hisoblanadi. Yu.A.Konarjevskiy ta'lim muassasalarida sifatni yaxshilash va uning boshqaruvi inson bilan, birinchi navbatda, o'qituvchi bilan ishlashdan boshlanadi va kadrlar bilan ishlash, ularning kasbiy darajasini oshirish bilan tugaydi, [2] deb uqtiradi. Mutaxassis bu o'rinda ta'limni bir sifat bosqichidan ikkinchi bosqichga olib chiqishni nazarda tutgan. Shuning uchun ham sifatni boshqarishda boshlanish va tugash nuqtalarini aniq beradi. Ammo sifatni yaxshilash (va, tabiiyki, boshqarish ham) jarayoni muntazam yangilanib borishini inobatga olsak, uning tugash haqidagi fikri shartli ma'no kasb etadi.

"Sifat" va "ta'lim sifatini boshqarish" tushunchalariga asoslanib, ta'lim sifatini ochiq ta'lim tizimining holati va samaradorligini oshirish jarayoni bilan bog'liq ijtimoiy kategoriya sifatida tushunish mumkin. Bunda, ta'lim sifatiga, birinchidan, ta'limning me'yoriy maqsadlariga; ikkinchidan, shaxslarning va turli ijtimoiy guruhlarning ehtiyojlariga muvofiqligini ta'minlaydigan yuqori ta'lim natijadorligi sifatida qarash lozim bo'ladi. Demokratik tamoyillar ta'limning sifatini boshqarishning ochiqlik xususiyatini belgilaydi, bu esa ishtirok etish, ko'maklashish, refleksivlik va ikkitomonlamalik tamoyillari bilan namoyon bo'ladi. Sifat sohasidagi ishlar o'quv jarayonining bevosita sub'ektlariga va o'quv yurtining tashqi hamkorlariga (ota-onalar va vasiylik kengashlari, ish beruvchilar, ijtimoiy sohalar) nisbatan maksimal darajada ochiqlikka intilishini talab qiladi. Ishtirok etish ta'lim faoliyati barcha sub'ektlarining sifat sohasidagi boshqaruv qarorlarini tayyorlash, muhokama qilish, qabul qilish va amalga oshirishda keng qatnashishlarini o'z ichiga oladi. Sifat sohasidagi asosiy tarkibiy qismlarni shakllantirish, muvofiqlashtirish va tasdiqlash ta'lim muassasasi ma'muriyatining

eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Sifat tizimini sifat sohasidagi siyosatni amalga oshirish vositasi deyish mumkin.

Muayyan natijalarga erishish, maqsadlarni aniq belgilash, sifat sohasidagi ishlarning samaradorligini oshirish uchun aniq harakat dasturini taklif qilish ta'lim muassasasi xodimlarining kasbiy fazilatlarini qo'llab-quvvatlaydi va ularning pedagogik hamda metodik mahoratini oshirishlariga rag'bat uyg'otadi. Ta'lim sub'ektlarini boshqarish orqali biz sub'ektlarning (ta'limni boshqarish organlari) maqsadli faoliyatini tushunamiz, ta'lim xizmatlarini taqdim etish va boshqaruv vazifalarini hal qilish orqali ta'lim xizmatlari iste'molchilarining (o'quvchilar, talabalar, ota-onalar va boshqalar) birgalikdagi faoliyatini tashkil etishni ta'minlash, ularning ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish va uning sifatiga e'tibor berishni tushunamiz. Ta'lim sohasidagi islohotlar bilan shug'ullangan olim Maykl Fullan ta'lim siyosatida keng miqyosli islohotlarga erishish va sifat samaradorligini ta'minlash borasida fikr bildirar ekan, agar o'qituvchilar faqat o'z sinflari darajasida fikrlasa va boshqa o'qituvchilar va butun maktabning muvaffaqiyatlaridan mutlaqo manfaatdor bo'lmasa; agar maktab direktorlari o'z maktablari darajasida o'ylasa va o'z tumanlaridagi boshqa direktorlar va maktablarning muvaffaqiyatlaridan mutlaqo manfaatdor bo'lmasa; agar tuman mutasaddilari rejalarini faqat o'z tumanlari doirasida amalga oshirsa va boshqa tumanlarning muvaffaqiyatlaridan mutlaqo manfaatdor bo'lmasa, keng miqyosli ta'lim islohotiga erishib bo'lmaydi. Tadqiqotchining ushbu fikrlari tizimni klaster yondashuvi asosida boshqarishni taqozo qiladi. Ushbu modelning pirovard maqsadi sub'ektlarni butun tizimning muvaffaqiyatiga jalb qilish, o'zgarish jarayonlarida bevosita ishtirok etishni ta'minlashdan iboratdir.

Bundan ko'rinib turibdiki, ta'lim sifatining klaster boshqaruvi alohida sub'ektlar darajasidan o'sib chiqib, o'sha sub'ekt joylashgan mintaqaning ta'lim sifatini oshirishga yo'naltirilgan kompleks yondashuvdir. Zero, hududning salohiyatini oshirmasdan turib alohida sub'ektlar bilan keng miqyosli samaradorlikka, islohotga erishib bo'lmaydi. Pedagogik ta'lim innovatsion klaster modeli shunisi bilan ham mamlakatning pedagogik ilm-fani rivoji uchun zarur hisoblanadi. Mintaqaviy darajadagi ta'lim sifatini boshqarishda klaster yondashuvidan foydalanish mintaqaviy tizimlar va ta'lim muassasalarining hamkorlik muhitini shakllantirish, zahira kuchlaridan foydalanishni optimallashtirish hisobiga xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi hamda ilg'or tajribalarni rivojlantirishni kuchaytirishga yo'naltiriladi. Klaster aloqalari hamda raqobat muhiti innovatsion rivojlanish, loyiha faoliyati yo'nalishlari va sur'atlariga, shuningdek, klasterning ichki tarkibiy qismlarini istiqbolli rivojlantirishga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida mintaqaning umumiy ta'lim sifatini boshqarish tushunchasiga quyidagicha

ta'rif berildi: mintaqa umumiy ta'lim sifatining klaster boshqaruvi – butun mintaqaning umumiy ta'lim sifati jarayoniga va uning asosiy elementlariga, xususiyatlariga (sub'ektivligi, mazmuni, tuzilishi, dinamikasi, shaxs, jamiyat va davlat talablariga muvofiqligi) insonparvarlik, uzluksizlik, demokratlashtirish g'oyalariga asoslangan zamonaviy ta'limni yangilash va rivojlantirish maqsadida kompleks, yo'naltirilgan va muvofiqlashtirilgan ta'sir.

Anijon viloyati pedagogik ta'lim innovatsion klasteri doirasida Andijon davlat pedagogika institutida amalga oshirilayotgan dastur va loyihalar oliy ta'limning ilmiy salohiyati yordamida hududdagi maktabgacha ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya sifatini yaxshilashga qaratilgan. Jumladan, "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasining "Innovator o'qituvchi" loyihasi umumta'lim maktablarida ona tili va adabiyot dars mashg'ulotlariga ijodiy jarayon sifatida qaraydigan, yangiliklardan qo'rqmaydigan o'qituvchini tarbiyalash orqali; "Fakultetlararo jismoniy tarbiya" kafedrasining "Iqtidorli tashabbuskor yoshlar" loyihasi o'quvchilarning jismoniy imkoniyatlari va ijodiy salohiyatini namoyon qilish hamda oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish, maqsadli dastur bo'yicha iqtidorli o'quvchilar bilan yakka tartibda shug'ullanish orqali; "Tarix" kafedrasining "Iqtidor" loyihasi iqtidorli o'quvchilarni shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga mos ravishda aniqlash, rivojlantirish va qo'llabquvvatlash uchun qulay sharoitlar yaratish, o'quvchilarning intellektual va ijodiy salohiyatini oshirish orqali; "Geografiya" kafedrasining "Mahoratli geograf" loyihasi o'qituvchilarga o'quv-uslubiy yordam berish, oliy ta'lim muassasalari talablariga asoslangan holda maktabda dars mashg'ulotlarining sifatini yaxshilash orqali; "Tasviriy san'at" kafedrasining "Pedagog rassom" loyihasi umumta'lim maktablarida tasviriy san'at to'garaklari faoliyatlarini kuchaytirish orqali; "Ijtimoiy fanlar" kafedrasining "Innovator murabbiy" loyihasi maktab ta'lim tizimida murabbiylar faoliyati samaradorligini oshirish masalasida yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish, o'quvchilarning o'qituvchilar bilan munosabatlarini maqsadli yo'naltirish orqali; "Maktabgacha ta'lim" kafedrasining "Montessori" loyihasi maktabgacha ta'lim muassasalarida "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi va ijodiy dastur integratsiyasi asosida bolalar bilan olib boriladigan ta'limiy mashg'ulotlarni tashkil etish orqali ta'lim va tarbiya sifatini oshirishga yo'naltirilgan. Ushbu loyihalar ta'lim-tarbiya sifatini boshqarishda oliy ta'limning ilmiy-amaliy ko'magini maktabgacha va umumta'lim muassasalariga yo'naltirishni nazarda tutadi.

Mutaxassislar "raqobat" tushunchasining mazmuni, uning mohiyati borasida o'z fikr-mulohazalarini bildirishgan. Jumladan, avstriyalik olim Fridrix A.Fon Xayek "Bilish, raqobat va erkinlik" nomli kitobida raqobat haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: "Raqobat – bu jarayon, u orqali odamlar bilimga ega bo'ladilar.

Raqobat bilim va qobiliyatdan unumli foydalanishga olib keladi. Insoniylik ne'matlarining aksariyati bellashuv, raqobat orqali hosil qilingan. Raqobat – insonning aqliy qobiliyatini o'stirish, buyuk kashfiyotchi va tadbirkorlarni tarbiyalab yetishtirishning alohida vositasidir" [4].

Rossiyalik olim G.L.Azoev esa raqobatga quyidagicha ta'rif beradi: "Raqobat bu alohida yuridik yoki jismoniy shaxslar o'rtasidagi qandaydir maydonda bitta ko'zlangan maqsadga erishish yo'lidagi bellashuvidir" [1]. O'zbekistonlik olim A.Qodirov esa "Raqobat – umumijtimoiy kategoriya bo'lib, ijtimoiy jarayonlar qatnashchilari o'rtasidagi ko'proq foydaga erishishi uchun bo'ladigan kurash"ni anglatishini ta'kidlaydi.

Mutaxassislarning ushbu fikrlari "raqobat" tushunchasining iqtisodiy kategoriya sifatidagi belgilarini ifodalagan. Ammo uni ta'lim tizimiga ham tatbiq qilish mumkin. Ta'lim xizmatlari bozorida ham maqsadga yoki foydaga erishish borasida bellashuv, kurash kuzatiladi va bu ta'lim sub'ektlari o'rtasidagi raqobatni ifodalaydi. Klaster yondashuvi hamkorlikning yangi shakli sifatida milliy pedagogikamiz salohiyatini rivojlantirish, raqobatbardosh ustunlikka ega bo'lish imkonini beradi. Klaster doirasida ta'lim muassasalari nafaqat ichki, balki tashqi ta'lim bozori bilan ham munosabatga kirishadi. Tashqi munosabatlar ta'sirida xorijiy pedagogik salohiyat va tajribaning milliy pedagogikamiz tomonga oqish jarayoni kuzatiladi. Klaster doirasida birlashgan sub'ektlar mavjud muammo va kamchiliklarga qarshi birgalikda kurashadi.

Muayyan sub'ektda mavjud kamchilikni bartaraf etish uchun nafaqat o'zining, balki boshqa sub'ektlarning ham kuch va salohiyati safarbar qilinadi, natijada, muammoning bartaraf etilishi kafolatlanadi, muddati odatdagidan bir necha barobarga qisqaradi. Buning natijasida klaster hududida pedagogik ta'lim sohasining nuqsonsiz ishlash imkoniyati paydo bo'ladi. Bu, albatta, sohaning raqobatbardoshligini oshirishga, ta'lim muassasalarining faol integratsiyalashuviga, innovatsiyalarning qisqa muddatlarda joriy qilinishiga olib keladi.

Eng muhimi, tayyorlanayotgan mutaxassislarning sifati oshadi, tizimda oqilona vorisiylikni ta'minlash va kadrlarga bo'lgan ehtiyojning sifatli qondirilishi ta'minlanadi. Ta'lim klasterlarining tuzilishi, odatda, o'zining tabiatidan kelib chiqqan holda turli elementlardan tashkil topadi. Klasterning yadrosi sifatida asosiy boshqaruv resursni anglatuvchi va uning elementlari o'rtasidagi munosabatlar tizimini o'rnatuvchi, tartibga soluvchi va muvofiqlashtiruvchi ta'lim muassasasini tushunish mumkin. Pedagogik ta'lim klasterida bu, shubhasiz, pedagogik oliy ta'lim muassasalari zimmasiga tushadi. Andijon viloyatida bugungi kunda eng katta ilmiy-pedagogik salohiyat, yuqori malakali pedagog kadrlar Andijon davlat pedagogika institutida jamlangan. Viloyatda tashkil qilingan

pedagogik ta'lim innovatsion klasteri hududdagi ta'lim ehtiyojlarini tashxislash ishlarini amalga oshirish, turli darajadagi ta'lim muassasalarining o'zaro ko'p tarmoqli aloqalarini yo'lga qo'yishda qo'l keladi. Bu jarayonda Andijon davlat pedagogika instituti klaster tarkibida dominant (asosiy bo'g'in) rolini bajaradi. Bu ilm-fan va amaliyotni o'zaro sintezlash, barcha turdagi ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilarning nazariya va amaliyot bo'yicha mavjud tadqiqotlarni birgalikda rivojlantirish, ilmiy faoliyat natijalarini o'quv jarayoniga joriy etish imkonini beradi. Shuningdek, yosh o'qituvchilarning pedagogik faoliyatga moslashuvchanlik davrini kamaytirish, innovatsion tajribalarni o'rganish, umumlashtirish va jamlash, pedagogika fani yutuqlarini tezda sinab ko'rish, umumta'lim maktablarida zamon talablariga javob beradigan raqobatbardosh o'qituvchilar jamoasining shakllanishini ta'minlaydi. Andijon davlat pedagogika instituti va uning atrofida birlashgan ta'lim sub'ektlari (viloyat XT va MTM boshqarmalari, umumta'lim maktablari, maktabgacha ta'lim muassasalari, akademik litsey va boshqa) tashkiliy-hududiy tuzilma (hududiy yaqinlik), resursli tuzilma (xodimlar, moliyaviy, moddiy, axborot va ta'lim resurslarining birlashuvi), funksional tuzilma (oldingi tuzilmalar kesishuvida hosil bo'ladi va qo'yilgan maqsad va vazifalarning innovatsion yechimlarini amalga oshiradi)larning birlashuvini hosil qiladi va viloyatning ta'lim salohiyatini oshiradi. Ushbu tashkiliy birlashuvning ilmiy ahamiyati oliy ta'lim muassasalarining birligi, ilmiy tadqiqotlar bazasi, doimiy pedagogik amaliyotlar hamda ilmiy-metodik muassasalararo innovatsiyalarni ayirboshlash, ta'lim salohiyatini integratsiya qilishga yo'l beruvchi faoliyatni birgalikda taqsimlash, yangi sifat darajasidagi pedagogik kadrlar kasbiy tayyorgarligining psixologik-pedagogik tadqiqi va samarali pedagogik amaliyotini tashkil etishdan iboratdir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqotimiz davomida Andijon viloyati pedagogik ta'lim innovatsion klasterida raqobat tushunchasining gnoseologik belgilari quyidagilardan iborat degan xulosaga kelindi:

1. Raqobat pedagog xodimlar tomonidan o'z sohasi doirasidagi fan va texnikaning eng yangi yutuqlarini muntazam o'zlashtirishni va ularni klaster hududida ta'lim jarayoniga faol tatbiq etishni taqozo qiladi.

2. Klaster hududida o'zaro nazoratning yo'lga qo'yilishi natijasida raqobat pedagog xodimlarni o'z ustida muntazam ishlashlarini, ta'lim jarayoniga o'tilayotgan fan (yoki mavzu)ning mohiyatini aniq bilgan holda yondashishni taqozo qiladi. Bu esa kuchni iqtisod qilish va sifatni oshirish imkonini beradi.

3. Klaster yondashuvi natijasida yuzaga kelgan o'zaro hamkorlik va raqobat ta'lim muassasalarini boshqarish usullarining takomillashishiga xizmat

qiladi. Ta'lim muassasalarini boshqarishda avtoritar tamoyillardan demokratik tamoyillarga o'tish zaruratini keltirib chiqaradi.

4. Klaster hududidagi raqobat bilim oluvchilarning ehtiyoji va talablarini bilishni, ularni qondirishning eng oqilona usul va vositalarini topishni taqozo qiladi.

5. Raqobat natijasida klaster hududida ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi jarayonlari optimallashadi va uchala sub'ektning o'zaro ta'siri hamda nazorati kuchayadi.

XULOSA

Ta'lim turlari o'rtasida o'zaro hamkorlik soha uchun yangilik emas. Pedagogik ta'lim klasteri shu paytgacha mavjud hamkorlikdan ba'zi jihatlari bilan farq qiladi. Masalan, shu kungacha nisbatan kuchsiz bo'g'inlarning salohiyatini oshirish masalasi ilmiy salohiyatning majburiy oqimini tashkil qilish vositasida hal qilib kelinmoqda. Pedagogik ta'lim klasteri vositasida esa yagona maqsad atrofida birlashgan sub'ektlarda ilmiy-pedagogik salohiyatning nisbatan zaif bo'g'inlar tomonga oqishi tabiiy jarayonga aylanadi. Klaster vositasida o'zaro hamkorlik, raqobatbardoshlik va innovatsion faoliyatning kuchayishi bu sohaning milliy va global raqobat siquviga munosib qarshi turishiga imkoniyat yaratadi. Ushbu ta'rif va tavsiflardan shu narsa anglashiladiki, raqobat ta'lim tizimi uchun xos ob'ektiv jarayon hisoblanadi. U, shuningdek, innovatsiyalarni tezlik bilan o'zlashtirish va ishlab chiqarish jarayonlariga tatbiq etishni ham talab qiladi. Klaster ta'lim sohasi uchun innovatsiya bo'lib, uning o'zlashtirilishi sohaning raqobatbardoshligini oshirish bilan birga, uning tezkorligi va zamonga moslashuvchanligini ham ta'minlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Salaydinovna, R. G. (2022). PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF NON-STANDARD WAY OF THINKING IN STUDENTS. *European science review*, (3-4), 17-20.
2. Rahmonova Gulchehra Salaydinovna (2022). PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF NON-STANDARD WAY OF THINKING IN STUDENTS. European science review, (3-4), 17-20.
3. Raxmonova, G. S. (2022). O'QUVCHILARDA NOSTANDART TAFAKKUR TARZINI RIVOJLANTIRISHNING REFLEKSIV MEXANIZMLARI. *RESEARCH AND EDUCATION*, *1*(9), 542–549.
4. Raxmonova, G. (2020). ТАЛАБАЛАРДА МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ УСУЛЛАРИ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, *4*(4).

5. Rahmonova, G. S. (2022). THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FUNDAMENTALS OF DEVELOPING NON-STANDARD THINKING IN STUDENTS. *Theoretical & Applied Science*, (4), 565-572.
6. RAXMONOVA, G. MA'NAVIYAT-JAMIYAT RIVOJLANISHINING MUHIM OMILI. *ЭКОНОМИКА*, 159-161.
7. Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati davlat rahbarining 2019 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi // www.lex.uz, 2019 yil 28 dekabr.
8. Qahhorov O.S. Ta'lim tizimida iqtisodchi kadrlarni tayyorlashning boshqaruv mexanizmini takomillashtirish (Buxoro viloyati misolida). Dissertatsiya avtoreferati. iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Toshkent, 2017. 6-7 betlar.
9. Navruz-Zoda B.N. O'zbekistonda oliy ta'lim tizimida sifat ta'minoti. - T: Xarizma design, 2008. - 245 b.
10. Zahidova Sh.Sh. Oliy ta'lim xizmatlari bozorining amal qilish mexanizmi samaradorligini oshirish (O'zbekiston materiallari asosida). Iqt.f.n. ...diss. avtoref. – T.: TMI, 2012.;

# ОБОСНОВАНИЕ ПЛАНИРОВАНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СПОРТИВНОЙ ИГРЫ БАДМИНТОН В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ ПО ФИЗИЧЕСКОМУ ВОСПИТАНИЮ СТУДЕНТОК

**Хамраева З.Б.**
Преподаватель кафедры «Физическая культура и спортивная деятельность» Ташкентского государственного экономического университета
hamraevazuhro4@gmail.com

**Аннотация:** Рассматривая воздействие игры на организм человека и её применение в оздоровительной физической культуре, можно сказать, что бадминтон имеет ряд преимуществ, благодаря эффективному воздействию на обменные процессы, происходящие в организме человека, его можно отнести к таким физическим упражнениям, выполнение которых сопровождается наиболее выраженным функционированием основных обеспечивающих систем.

**Ключевые слова**: *бадминтон, учебный процесс, педагогический эксперимент, студент.*

Одной из эффективных форм физического воспитания определена спортивно-ориентированная направленность.

При провождении опроса студенток о внедрении спортивной игры бадминтон в образовательный процесс, все 100 % респондентов выразили желание о включении бадминтона в учебный процесс. Для чего были проведены констатирующий и формирующий педагогические эксперименты. В исследовании приняли участие студентки 1-курса (n=30). В первой главе приведены результаты анкетного опроса о выборе занятий по физической культуре, с использованием «умных весов» который выявил состав тела студенток в третьей главе, тем не менее для выбора тестов характеризующие физическое состояние студенток была проведена парная корреляция между параметрами, которые можно использовать для оперативного контроля. Выбор тестов осуществлялся на основе критериев информативности, надежности. (Таблица 1). Расчет коэффициентов корреляции между различными параметрами тестирования позволили остановить выбор на тестах: прыжки со скакалкой, прыжки в длину с места, челночный бег, то есть данные тесты можно использовать при оперативном контроле, применять упражнения развивающие скоростно-силовые качества. Важно отметить, что экспериментальная группа занималась по разработанной программе, а контрольная группа по типовой программе.

На диаграмме 1 приводятся показатели среднеарифметических значений параметров физической подготовленности студенток 1курса экспериментальной группы в начале педагогического эксперимента.

**Таблица 1**

**Параметры коэффициентов корреляции между тестами физической подготовленности экспериментальной группы в начале эксперимента**

| № | Наименование тестов | Индекс массы тела кг ($м^2$) | Челночный бег 3х10м | Прыжки на скакалке за минуту | Прыжки в длину с места |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Индекс массы тела | 1,00 | | -0,114 | -0,321 |
| 2 | Челночный бег 3х10м | | 1,000 | -0,925 | -0,705 |
| 3 | Прыжки на скакалке за минуту | | | 1,000 | -0,705 |
| 4 | Прыжки в длину с места | | 0,70 | -0,80 | 1,000 |

В таблице (1) приведены коэффициенты обратной связи (Ч=-0.9; между временем челночного бега и прыжками со скакалкой; и прыжков в длину с места и челночного бега (Ч=0,7).

В содержание игровых действий при игре в бадминтон, студентка совершает большое количество перемещений для производства ударов ракеткой по волану, поэтому на практических занятиях должно быть уделено время на развитие скорости перемещений, для чего необходимо использовать упражнения: прыжки на скакалке за минуту, челночный бег 3х10м или спортивные игры, состоящие из этих двигательных действий (настольный теннис, стритбол).




**Диаграмма 1**. Показатели среднеарифметических значений параметров физической подготовленности студенток 1-курса экспериментальной группы Ташкентского государственного экономического университета в начале эксперимента (в процентах).

В ходе исследования и по окончании наиболее оптимальный вариант использования спортивной игры в бадминтон с использованием средств дарст, гандбол, настольный теннис, стритбол, легкой атлетики, утренней зарядки, национальные, подвижные игры, эстафеты, участие в соревнованиях, также упражнения позволяют проводить практические занятия на пульсе от 90-177уд/мин на хорошем методическом уровне. Результаты формирующего эксперимента позволяют констатировать эффективность разработанной здоровьеразвивающей технологии.

## Литература

1. Neculai Harabagiu, Carmen Pârvu The Statistical Analysis of the Game Actions of the Middle-Blocker Based on the Application of the "Data Volley" Software // Revista Romaneasca pentru Educatie Multidimensionala. Vol. 14 No. 1Sup1 (2022). P 101-110.

2. Бабичева И.В., Эрдонов О.Л, Исмагилов Д.К. Инновационные педагогические технологии в образовательном процессе по физическому воспитанию студентов. Сборник тезисов международной научно – практической конференции г.Ташкент ТУИТ "Инновационные технологии в сфере физической культуры и спорта"-14-15 ноября 2008года с.12-13
3. Лубышева Л.И. Спорт и социализация: от методологии спортизации-к инновационным социакультурным проектам и Физическая культура, воспитание, образование. тренировка-2017 № 1, с 2-4

4. Бальсевич В.К., Лубышева Л.И. Физическая культура: молодежь и современность // Теория и практика физической культуры, 1995-№4. -С2-8
5. Ю.Лейбовский, Н.Г.Иванова, Мотивы и потребности студентов Кубанского государственного технологического университета в различных видах двигательной активности на занятиях по физической культуре (по результатам анкетного вопроса) // Наука и образование-2011. №. -3. - С. 41-43.
6. Иванова С.Ю. Формирование потребности студентов в вузе в здоровом образе жизни: дис. ...к.п.н. Кемерово, 2008.-166С.

# SHAHAR JAMOAT TRANSPORTI YO'NALISHLARIDA YO'LOVCHILARNI HARAKATLANISH VAQTINI MODELLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Xomidov Anvarbek Ahmadjon o'g'li
Andijon Mashinasozlik instituti 2- bosqich doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada shahar jamoat transporti yo'nalishlarida yo'lovchilar harakati vaqtini modellashtirishning nazariy asoslari keltirilgan. U sayohat vaqtiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni, jumladan, samolyotga chiqish, tushish, yo'l harakati sharoitlari va to'xtashlar sonini o'rganadi. Tadqiqot talab va xizmat ko'rsatish darajasining o'zgaruvchanligini hisobga olgan holda yo'lovchilar oqimi va tranzit vaqtlari dinamikasini to'g'ri aks ettiruvchi kompleks modelni ishlab chiqishga qaratilgan. Ushbu dinamikani tushunishni yaxshilash orqali model shahar transportini rejalashtirishni optimallashtirish, operatsion samaradorlikni oshirish va yo'lovchilarning qoniqishini oshirishga yordam beradi. Topilmalar yanada samarali va ishonchli jamoat transporti tizimlarini loyihalashtirishni maqsad qilgan transport organlari uchun amaliy ahamiyatga ega.

Shahar jamoat transportida yo'lovchilar harakati vaqtini o'rganishga butun dunyoda katta e'tibor qaratilmoqda. Ko'plab xalqaro tadqiqotlar yo'lovchilarni minish va tushirish, yo'l harakati sharoiti, marshrut dizayni va to'xtashlar soni kabi sayohat vaqtiga ta'sir qiluvchi omillarning murakkab o'zaro ta'sirini tushunishga qaratilgan. Misol uchun, Qo'shma Shtatlar, Germaniya va Yaponiya kabi mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar ushbu omillarga asoslangan sayohat vaqtini bashorat qiluvchi ilg'or modellarni ishlab chiqishga hissa qo'shdi. Ushbu modellar avtobuslar jadvalini optimallashtirish, kechikishlarni minimallashtirish va jamoat transporti xizmatlarining umumiy ishonchliligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

O'zbekistonda Toshkent kabi shaharlarning tez urbanizatsiyasi samarali jamoat transporti tizimlariga ehtiyojning ortishiga olib keldi. O'zbekistonda olib borilgan so'nggi tadqiqotlar yo'lovchilarga bo'lgan talabning ortishi va tirbandlik tufayli shahar tranzitini boshqarishdagi qiyinchiliklarni ko'rsatib beradi. Shu bilan birga, yo'lovchilar harakati vaqtini modellashtirish, xususan, mamlakatning noyob transport infratuzilmasi va harakat shakllari kontekstida hali ham to'liq o'rganilmagan. Ushbu tadqiqot xalqaro va mahalliy tadqiqot natijalariga asoslanib, shahar jamoat transporti yo'nalishlarida yo'lovchilar harakati vaqtini modellashtirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish orqali ushbu bo'shliqni bartaraf etishga qaratilgan.

Statistik tahlil va O'zbekistonda va xorijda olib borilgan transport tadqiqotlari ma'lumotlarini o'zida jamlagan holda, ushbu maqola yo'lovchilar harakati vaqtlarining o'zgaruvchanligini aks ettiruvchi keng qamrovli modelni

taqdim etadi. Taklif etilayotgan model Oʻzbekistondagi shahar jamoat transporti yoʻnalishlaridagi voqelikni aks ettirish uchun ishlab chiqilgan boʻlib, yoʻlovchilarga boʻlgan talabning oʻzgaruvchanligi, harakatlanish sharoitlarining oʻzgarishi va turli xizmat koʻrsatish darajalarining taʼsiri kabi omillarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Ushbu tadqiqot natijalari Oʻzbekistonda jamoat transporti faoliyatini optimallashtirish, shahar tranzit tizimlari aholining oʻsib borayotgan harakatchanlik ehtiyojlarini samarali qondirishini taʼminlashga katta hissa qoʻshishi kutilmoqda.
### Metodologiya

Ushbu tadqiqotda qabul qilingan metodologiya nazariy va empirik yondashuvlarni oʻzida jamlagan holda shahar jamoat transporti yoʻnalishlarida yoʻlovchilar harakati vaqtining kompleks modelini ishlab chiqishga qaratilgan. Model yo'lovchilarning sayohat vaqtiga ta'sir ko'rsatadigan asosiy o'zgaruvchilarni, masalan, yo'l harakati sharoitlari, yo'lovchilarga chiqish va tushish tezligi, to'xtashlar soni va xizmat ko'rsatish chastotasini olishga qaratilgan.

#### Ma'lumotlar yig'ish
Ushbu tadqiqot uchun birlamchi maʼlumotlar koʻplab manbalardan toʻplangan, jumladan, dala kuzatuvlari, jamoat transporti vositalarining GPS kuzatuvi va Oʻzbekistonning yirik shahar markazlarida, xususan, Toshkentda oʻtkazilgan yoʻlovchilarni oʻrganish. Berlin, Tokio va Nyu-York kabi shaharlarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida olingan xalqaro ma'lumotlardan qiyosiy tahlil qilish uchun ham foydalanilgan. Ushbu tahlilda foydalanilgan statistik ma'lumotlar ishonchli va keng qamrovli ma'lumotlar to'plamini ta'minlovchi davlat transport agentliklari, akademik tadqiqotlar va yo'l harakati boshqaruvi tizimlaridan olingan.

**Modelni ishlab chiqish**

Modellashtirish jarayoni sayohat vaqtiga ta'sir qiluvchi turli omillar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun ko'p chiziqli regressiya tahlili va vaqt seriyasini modellashtirishni o'z ichiga olgan ilg'or statistik usullardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Nazariy asosni tasdiqlash va real dunyo ma'lumotlariga asoslangan modelni takomillashtirish uchun AnyLogic va MATLAB kabi simulyatsiya dasturlari ishlatilgan. Aniqlikni ta'minlash uchun turli xil transport va yo'lovchilarni yuklash stsenariylarida modelning ishlashini sinab ko'rish uchun sezgirlik tahlili o'tkazildi.

Modelda ko'rib chiqilgan asosiy o'zgaruvchilar:
- shahar yo'nalishlarida avtomobilning o'rtacha tezligi
- Har bir to'xtash joyiga chiqish va tushish yo'lovchilar soni
- tirbandlik darajasi (cho'qqi va cho'qqidan tashqari soatlar)
- To'xtash joylari orasidagi masofa
- Marshrutni loyihalash va to'xtash oralig'i

- Xizmat ko'rsatish chastotasi va yo'nalishi

**Statistik tahlil**

Modelga qo'llaniladigan statistik tahlil multikollinearlik va heteroskedastlikni ta'minlash uchun regressiya diagnostikasini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, yo'lovchilar oqimi ma'lumotlaridagi nosimmetrikliklar bilan ishlash uchun eksponensial tekislash va harakatlanuvchi o'rtachalar kabi ma'lumotlarni tekislash usullari qo'llanildi. Ushbu tahlillar modelning bashoratli aniqligini yaxshilashga yordam berdi.

| Variable | Mean Value | Standard Deviation | Data Source |
|---|---|---|---|
| Average speed (km/h) | 20.5 | 3.2 | GPS tracking data (Tashkent) |
| Passengers per stop | 15.8 | 4.5 | Passenger surveys |
| Stop distance (meters) | 400 | 150 | Government transport records |
| Traffic congestion level | Moderate | N/A | Traffic monitoring systems |
| Service frequency (minutes | 8 | 2.5 | Public transport schedules |

**Xalqaro tadqiqotlar**

Dunyo bo'ylab bir nechta tadqiqotlar yo'lovchilar harakati vaqtiga ta'sir qiluvchi omillarga qaratilgan. Chen va boshqalar (2014) Nyu-York shahrida sayohat vaqtining o'zgaruvchanligi bo'yicha keng qamrovli tadqiqot o'tkazdilar va regressiyaga asoslangan modelni ishlab chiqdilar, bu tirbandlik, yo'lovchilar yuki va marshrutning murakkabligi kabi o'zgaruvchilarni hisobga oldi.

Xuddi shunday, Vang va Qu (2017) transport signallarining kechikishlari va to'xtash chastotasining Tokioda avtobus qatnovi vaqtlariga ta'sirini o'rganib, vaqt seriyasi tahlilidan foydalanib, eng yuqori soatlardagi tirbandlik ta'sirini modellashtirdi. Ularning topilmalari shuni ko'rsatdiki, yo'lovchilarni minish va tushirish vaqtlari umumiy sayohat vaqtining muhim qismini, ayniqsa eng yuqori soatlarda to'g'ri keladi.

Evropada Kieu va boshqalar (2018) Berlinning shahar avtobus tarmog'ida yo'lovchilar harakati vaqtlariga xizmat ko'rsatish chastotasi va to'xtash oralig'ining ta'sirini modellashtirdilar. Ularning ishi to'xtash oralig'ining qisqarishi va yo'lovchilar oqimining yaxshilanishi o'rtasida kuchli bog'liqlik borligini ko'rsatdi va bu yo'nalishni loyihalashning maqbul strategiyalarini ishlab chiqishga hissa qo'shdi. Bundan tashqari, Londonda Li va boshqalar (2020) tomonidan ishlab chiqilgan modellar kabi simulyatsiyaga asoslangan modellar sayohat vaqtlarini bashorat qilish va shahar tranzitini dinamik rejalashtirish tizimlarini yaxshilash uchun real vaqt ma'lumotlaridan foydalangan.

O'zbek tadqiqotlari

O'zbekistonda shahar jamoat transporti bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar, birinchi navbatda, mamlakat jamoat transporti tizimlari

samaradorligini oshirishga qaratilgan. Karimov va Tursunov (2022) Toshkentning avtobus yoʻnalishlarini tahlil qilib, yoʻlovchilar sonining koʻpayishi va tirbandlik bilan bogʻliq muammolarni taʼkidlab oʻtdilar. Ularning tadqiqotida yoʻlovchilar yuki va sayohat vaqti oʻrtasidagi bogʻliqlikni oʻrganish uchun regressiya tahlili qoʻllanilib, poytaxtdagi eng yuqori soatlik tirbandlik kechikishlarni sezilarli darajada oshirganligini aniqladi.

Ismoilov va boshqalar (2023) hukumat buyurtmasi boʻyicha yaqinda oʻtkazgan tadqiqotida Samarqandda avtobus qatnovi vaqtiga yangi harakatni boshqarish tizimlarining taʼsirini oʻrganib chiqdi. Ularning ishi keraksiz to'xtashlarni kamaytirish orqali marshrut dizaynini optimallashtiradigan modellarni ishlab chiqish uchun real vaqtda trafik ma'lumotlarini birlashtirdi. Tadqiqot natijalari optimallashtirilgan marshrutni amalga oshirgandan so'ng sayohat vaqtining 12% ga qisqarishini ko'rsatdi.

Tadqiqot natijalarini qiyosiy tahlil qilish

Xalqaro va Oʻzbekiston tadqiqot natijalari yaqinlashuv va divergensiyaning bir necha asosiy yoʻnalishlarini ajratib koʻrsatadi:

1. Yoʻlovchining chiqish va tushish vaqti: Xalqaro va mahalliy tadqiqotlar avtobus bekatlarida yoʻlovchilar harakatining umumiy sayohat vaqtiga sezilarli taʼsirini taʼkidlaydi. Biroq Oʻzbekistonda chiptalarni sotishning ilgʻor tizimlarining yoʻqligi yoʻl haqini yigʻish avtomatlashtirilgan mamlakatlarga nisbatan samolyotga chiqish vaqtini uzaytiradi.
2. Tirbandlik: Trafik tirbandligi xalqaro va Oʻzbekiston shaharlarida sayohat vaqtiga taʼsir qiluvchi asosiy omil hisoblanadi. Tokio va Nyu-Yorkdagi tadqiqotlarda qayd etilgan eng yuqori soatlik kechikishlarning oʻzgaruvchanligi Toshkentda ham yaqqol koʻrinib turibdi, bu yerda urbanizatsiya va avtotransport vositalariga egalik darajasi ortib borayotgani tirbandlikning kuchayishiga hissa qoʻshgan.
3. Toʻxtash oraligʻi va marshrut dizayni: Xalqaro tadqiqotlar sayohat vaqtini yaxshilash uchun toʻxtash oraligʻini optimallashtirishning afzalliklarini taʼkidlaydi. Bu topilma, ayniqsa, O'zbekiston uchun juda dolzarb bo'lib, u erda tez-tez, bir-biriga yaqin joylashgan to'xtash joylariga ega eskirgan marshrut dizaynlari kechikishlarga yordam beradi.

## ADABIYOTLAR


1. K M Nissen. How does weather affect the use of public transport in Berlin? (2020)
2. Markus Hofmann, Margaret O'MahonyThe Impact of Adverse Weather Conditions on Urban BusPerformance Measures – an Analysis Using ITS Technology(2005)
3. Sui Tao, Jonathan Corcoran, Francisco Rowe, Mark Hickman, (2018), To travel or not to travel: 'Weather'is the question. Modelling theeffect of local

weather conditions on bus ridership,Transportation Research Part Cjournal homepage: www.elsevier.com/locate/trc.

4. Syeed Anta Kashfi.Adverse weather effects on bus ridership.26th ARRB Conference – Research driving efficiency, Sydney, New South Wales 2014
5. Абдуллаев Ботир Инатович, Ахмедов Дилмурод Тошпўлатўғли, Мўминов Тўлқин Шойқулович Йўловчининг манзилига етиб бориш вақти ва унга таъсир этувчи кўрсаткичлар Илм-фан ва инновацион ривожланиш журнали 2021йил 1- сон 75 бет.
6. Qun Chen, Global Optimization for Bus Line Timetable Setting Problem, (2014),Hindawi Publishing CorporationDiscrete Dynamics in Nature and SocietyVolume 2014, Article ID 636937, 9 pagestp://dx.doi.org/10.1155/2014/636937.
7. hikersbay.comэлектрон манба маълумотлари.
8. Abdullaev, B., Yuldoshev, D., Muminov, T., & Axmedov, D. (2021, April). Improving the method of assessing road safety at intersections of single-level highways. In E3S Web of Conferences (Vol. 264, p. 05027).
9. Ahmed M. El-Geneidy, James G. Strathman, Thomas J. Kimpel, and David T. Crout, (2005), Transportation Research Record Journal of the Transportation Research Board
10. Гудков В.А., Миротин Л.Б., Вельможин А.В., Ширяев С.А. Пассажирские автомобильные перевозки: Учебник. Под ред. В.А. Гудкова. - М.: Горячая линия - Телеком, 2006. - 448 с.
11. Спирин И.В. Организация и управление пассажирскими автомобильными перевозкаи, М., Акакдемия, 2010. – 400 с. 14. Бутаев Ш.А. ва б. Ташиш жар

# RESPUBLIKAMIZDA TRANSPORT OQIMINI TASHKIL ETISHDA INTELLEKTUAL TRANSPORT TIZIMLARINING QO'LLANILISHI

**Nazirov Nodirbek Jamoliddin o'g'li**
Andijon mashinasozlik instituti,
"Transport logistikasi"kafedrasi assistenti
E-mail: nodirnazirov98@gmail.com
Tel.: +998882345451
**Yusupov Sarvarbek Sodiqovich**,
Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti
"Mashinasozlik texnologiyasi" kafedrasi t.f.f.d., dots.
E-mail: sarvarbek.83@mail.ru,
Tel.: +99 890 217 54 27.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021yil 29 noyabr oyidagi №-717 qarorida Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus rejim taklif etish va uning faoliyatini yo'lga qo'yish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash xaqidagi qarori davlatimiz tomonidan transport tizimini yangi zamonaviy darajada tashkillashtirishga, intellektual transport tizimlarini qo'llash davlat rivojini asosiy qismi ekanligini ko'rsatadi.

Intellektual transport tizimlari (ITT)- transport jarayonlarining xavfsizligi va samaradorligini oshirishga, haydovchilar va transportdan foydalanuvchilar uchun qulayliklarni yaratishga yo'naltirilgan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va transport infratuzilmasini avtomatlashtirish vositalarining tizimli integratsiyalashuvidir [1].



***1-rasm. Yoʻl harakatini boshqarishning kompyuterlashtirilgan tizimi***

Intellektual transport tizimlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- mintaqaning transport sektorida davlat funksiyalarini bajarish va davlat xizmatlarini koʻrsatish sifatini oshirish;
- transportning barcha turlarida yoʻlovchi va yuk tashish talablariga javob beradigan umumiy avtomatlashtirilgan boshqarish tizimining imkoniyatlarini kengaytirish;
- yoʻl harakati xavfsizligini ta'minlash.

Transport oqimlari — bu transport vositalarining (avtomobillar, avtobuslar, poyezdlar, samolyotlar va boshqa transport turlari) yoʻllar, temir yoʻllar, havolar yoki suv yoʻllari orqali harakatini ifodalaydigan jarayonlardir. Transport oqimlari turli omillar va koʻrsatkichlar bilan belgilanadi, va ular transport tizimlarining samaradorligini va xavfsizligini ta'minlashda muhim rol oʻynaydi [2].

Transport oqimlarining asosiy komponentlari

1. Transport vositalari:

Harakat qilayotgan avtomobillar, avtobuslar, poyezdlar, yuk mashinalari, velosipedlar va boshqa vositalar.

2. Infratuzilma:

Yoʻllar, koʻpriklar, yoʻl chorrahalari, stansiyalar, aeroportlar va boshqa transport inshootlari.

3. Foydalanuvchilar:

Yoʻlovchilar, yuk tashuvchi kompaniyalar, transport operatorlari va boshqa ishtirokchilar.

Transport oqimlarini boshqarish

1. Trafikni nazorat qilish:

Yoʻl harakatini boshqarish uchun aqlli trafik signalizatsiyasi va nazorat tizimlari.

2. Ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish:

Sensorlar va kuzatuv tizimlari yordamida transport oqimlarining holatini real vaqtda kuzatish.

3. Rejalashtirish:

Yoʻl harakati oqimini yaxshilash va tirbandliklarni kamaytirish uchun strategik rejalashtirish.

Transport oqimlarining turlari

1. Yoʻl oqimlari:

Avtomobillar va boshqa transport vositalarining yoʻllarda harakati.

2. Temir yoʻl oqimlari:

Poyezdlarning temir yoʻllar boʻylab harakati.

3. Havo oqimlari:

Samolyotlarning havo yoʻllari boʻylab harakati.

4. Suv oqimlari:

Kema va boshqa suv transport vositalarining suv yoʻllari boʻylab harakati.

Transport oqimlarining muhim ko‘rsatkichlari

1. Harakat tezligi:

Transport vositalarining ma'lum masofani qamrab olish tezligi.

2. Tirbandlik:

Oqimda transport vositalarining bir joyda to‘planishi, bu esa harakatni sekinlashtiradi.

3. Xavfsizlik:

Yo‘l harakati xavfsizligi ko‘rsatkichlari, avtohalokatlar soni va ogohlantirishlar.ITTlarini jahon tajribasida qo‘llanilishi shuni ko‘rsatdiki, amaliyotda transport xavfsizligi darajasi, transport tarmoqlarida muammolarni va tirbandliklarni bartaraf etish sezilarli yaxshilandi, intermodal transport tizimining, shu jumladan, avtomobillar, temir yo‘l, havo va dengiz transporti hamda ekologik va energetik muammolarni hal qilish samaradorligi oshdi. Jahon amaliyotida ITT foydalanuvchilarining beshta asosiy turi aniqlandi: haydovchilar, piyodalar va velosipedchilar, jamoat transporti yo‘lovchilari, yuk tashuvchilar, transport operatorlari va transport infratuzilmasi ekspluatatsiyasi bo‘yicha xizmat ko‘rsatuvchilar. Intellektual transport tizimlari - bu transport jarayonlarining asosiy tarkibiy qismlari: inson - transport vositalari - transport infratuzilmasi bilan bog‘liq holda axborot texnologiyalarining integratsiyasidir. Shuningdek, ITT - bu transport tizimlarini modellashtirish va transport oqimlarini tartibga solishda innovatsion ishlanmalardan foydalanadigan, foydalanuvchilarga ko‘proq ma’lumot mazmunini va xavfsizligini ta’minlaydigan, shuningdek, odatiy transportga nisbatan harakat ishtirokchilarining o‘zaro ta’siri darajasini sifat jihatidan oshiradigan intellektual tizimdir [3].

Yo‘l harakati holatini nazorat qilish vazifasi, aslida, tezlik bilan harakatlanayotgan ko‘plab ob’ektlarni kuzatishdan iboratdir. Inson bunday mashaqqatli muntazam bajariladigan faoliyatga moslasha olmaydi, unda tezda charchash holatlari yuzaga keladi va transport holatini to‘liq nazorat qila olmaydi. Ushbu muammoni “Avto-Intellekt” yo‘l-transport holatini intellektual nazorat qilish va avtomobil raqamlarini aniqlash orqali tezda hal qiladi. Nazorat zonasidan o‘tgan barcha transport vositalarining ma’lumotlar bazasi shakllantiriladi [5]. Yagona tizimga cheksiz miqdordagi videokameralar, ma’lumotlarni saqlash va qayta ishlash serverlari, shuningdek avtomatlashtirilgan operator ish o‘rinlarini birlashtirilishi mumkin.

Intellektual transport tizimlarining (ITT) transport oqimini tashkil etishda qo‘llanilish darajasini baholash uchun quyidagi metodlarni ishlab chiqish mumkin:

Ma'lumotlarni yig‘ish

1. Statistik ma'lumotlar: Transport oqimi, yo‘lovchilar soni, yuklarning hajmi va boshqa muhim ko‘rsatkichlarni yig‘ish.
2. Sensorlar va IoT: Yo‘llarda joylashgan sensorlar va IoT qurilmalari yordamida real vaqtda ma'lumot to‘plash.

Tahlil qilish

1. Oqim tahlili: Yig'ilgan ma'lumotlarni tahlil qilib, transport oqimining o'zgarishini aniqlash.
2. Modellashtirish: Oqim dinamikasini modellashtirish uchun matematik va statistik modellarni ishlab chiqish.

ITT qo'llanilishi

1. Tizimlarni integratsiya qilish: ITT elementlarini (masalan, GPS, RFID, avtomatik boshqaruv tizimlari) transport tizimiga integratsiya qilish darajasini baholash.
2. Foydalanish darajasi: ITT vositalaridan (masalan, mobil ilovalar, aqlli trafik signalizatsiyasi) foydalanish darajasini tahlil qilish.

Effektivlikni baholash

1. Ko'rsatkichlar: Yo'l harakatining samaradorligini baholash uchun KPIs (asosiy ko'rsatkichlar) o'rnatish (masalan, vaqt, xarajatlar, xavfsizlik).
2. Tahlil: Olingan ma'lumotlarni tahlil qilib, ITT ning transport oqimiga ta'sirini baholash.

Takliflar

1. Tashkiliy chora-tadbirlar: Oqimni yaxshilash uchun takliflar ishlab chiqish (masalan, transport rejalashtirish, trafikni boshqarish strategiyalari).
2. Innovatsiyalar: Yangi texnologiyalar va metodlarni joriy qilish.

Monitoring va qayta ko'rib chiqish

1. Doimiy monitoring: Transport oqimini va ITT ni doimiy ravishda monitoring qilish.
2. Natijalarni baholash: Olingan natijalarni baholash va zarur bo'lsa, takliflarni yangilash.

Bu metodlar orqali intellektual transport tizimlarining samarali qo'llanilishini baholash va transport oqimini yaxshilash imkoniyatlarini aniqlash mumkin [6].

xavfsizlikni oshirish va xizmatlarni optimallashtirish maqsadida yaratilgan tizimlardir. ITT transportning turli sohalarini o'z ichiga oladi, jumladan:

Asosiy komponentlar

1. Sensorlar va monitoring tizimlari: Yo'l harakati, transport vositalari va yo'lovchilarni real vaqtda kuzatish uchun mo'ljallangan qurilmalar.
2. Ma'lumotlar bazalari: Yig'ilgan ma'lumotlarni saqlash va tahlil qilish uchun mo'ljallangan tizimlar.
3. Kommunikatsiya tizimlari: Transport vositalari va infratuzilma o'rtasida ma'lumot almashish uchun zarur bo'lgan tarmoqlar.

Foydalari

1. Trafikni boshqarish: ITT yordamida yo'l harakati oqimini optimallashtirish, tirbandliklarni kamaytirish va transportni yanada samarali boshqarish mumkin.
2. Xavfsizlikni oshirish: Yo'l harakati xavfsizligini oshirish uchun ogohlantirish tizimlari va avtomatik nazorat usullari qo'llaniladi.

3. Yoʻlovchi va yuk tashish xizmatlari: ITT orqali yoʻlovchilar va yuklarni samarali rejalashtirish va boshqarish imkoniyatlari yaratiladi.

Ilovalar

1. Aqlli trafik signalizatsiyasi: Real vaqtda trafik ma'lumotlarini oʻqish va boshqarish, shuningdek, signalizatsiya vaqtini optimallashtirish.
2. Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari: Avtomobillar va boshqa transport vositalarining avtomatik boshqarilishini ta'minlaydi.
3. Navigatsiya va marshrutlashtirish ilovalari: Yoʻlovchilar uchun eng yaxshi marshrutlarni taklif etish va trafik holatini koʻrsatish.

Xulosa qilib aytganda ITT texnologiyalari doimiy ravishda rivojlanmoqda, sun'iy intellekt, big data va IoT (Internet of Things) kabi innovatsiyalar orqali yanada samarali tizimlar yaratilmoqda. Bu kelajakda transport tizimlarining yanada xavfsiz, samarali va foydali boʻlishini ta'minlaydi. Umuman olganda, intellektual transport tizimlari transport sohasida inqilobiy oʻzgarishlarga sabab boʻlib, oqimlarni optimallashtirish va transport xizmatlarini yaxshilashga katta hissa qoʻshmoqda. Ushbu uslub intellektual transport tizimlarining qoʻllanilish darajasini baholash va transport oqimlarini yaxshilashda samarali vosita boʻlishi mumkin. Bu uslub, transport tizimlarining sifatini oshirish, xavfsizlikni ta'minlash va foydalanuvchilar tajribasini yaxshilashga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Xakimov Sh.K. Intellektual transport vositalarining texnologiyalari: o'quv qo'llanma.- Toshkent, 2022.
2. Yusupov S. S. Synergetic Properties of the Interaction of the Vehicle with the Element of Road Infrastructure in Urban Driving Modes //Journal of Siberian Federal University. Engineering & Technologies. – 2022. – T. 15. – №. 5. – C. 593-608.
3. Yusupov S. SYNERGETIC PROPERTIES OF VEHICLE TO INFRASTRUCTURE IN URBAN DRIVING MODES: SYNERGETIC PROPERTIES OF VEHICLE TO INFRASTRUCTURE IN URBAN DRIVING MODES //Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent. – 2022. – T. 12. – №. 2.
4. Yusupov Sarvarbek Sodiqovich, & Inoyatkhodjaev Jamshud Shukhratullaevich. (2021). Analysis of test results using an automatic start-stop system in vehicle driving modes. *Open Journal of Science and Technology*, *4*(2), 77–84. https://doi.org/10.31580/ojst.v4i2.1791.
5. Usmanova M.N., Abdurazakova D.A. The role of non governmental organizations in ensuring road safety.// World Economics & Finance Bulletin (WEFB) Available Online https://scholarexpress.net/index.php/wefb/article/view/756/681 March 30th 2022
6. Road Intersection Improvement–Main Step for Emission Reduction

and Fuel Economy S Khakimov, S Rajapova, F Amirkulov, E Islomov - IOP Conference Series: Earth and Environmental …, 2021

7. Dildora Abdurazakova Anvarovna., Utkirov Shokirxoja Shavkat o'g'li Organization of traffic at uncontrolled intersections science and innovation in the education system International scientific-online conference https://doi.org/10.5281/zenodo.7695531
8. САРИМСАҚОВ, А. М., & НАЗИРОВ, Н. Ж. Ў. ОРГАНИЗАЦИЯ УПРАВЛЕНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ШАХРИХАНСКОГО АВТОВОКЗАЛА С ИНФОРМАЦИОННЫМИ ТЕХНОЛОГИЯМИ. UNIVERSUM, 52-54.
9. Саримсаков А.М., Хакимов М. ПРОЕКТИРОВАНИЕ СИСТЕМ ПОЖАРОТУШЕНИЯ, СКОРОСТНОГО ДВИЖЕНИЯ АВТОМОБИЛЕЙ СКОРОЙ ПОМОЩИ НА ПЕРЕКРЕСТКАХ // Universum: технические науки : электрон. научн. журн. 2022. 4(97). URL: https://7universum.com/ru/tech/archive/item/13416 (дата обращения:19.12.2022)
10. Nazirov, N. (2023). SHAHRIXON TUMANIDA JOYLASHGAN AVTOSHOXBEKATDA ZAMONAVIY TO'LOV TIZIMLARIDAN FOYDALANISH. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(5), 5-9.
11. Nazirov Nodirbek. (2023). ANDIJON VILOYATI SHAHRIXON TUMANIDA JOYLASHGAN AVTOSHOXBEKATDAGI AVTOBUSLAR VA MIKROAVTOBUSLAR FAOLIYATIDA GPS-NAZORATI MARKAZINI TASHKIL ETISH ORQALI FAOLIYATINI TAKOLADI. TA'LIMDAGI ZAMONAVIY MUAMMOLAR VA ULARNING ILMIY YECHLARI , 1 (1), 175-182. https://esiconf.com/index.php/mpe/article/view/102 dan olindi
12. Nazirov Nodirbek Jamoliddin o'g'li, Omonov Sanjarbek Alijon o'g'li. (2023). Global logistika muammolari va uning rivojlanish istiqbollari: O'zbekiston misoli.

# ELEKTROMOBILLARNING ELEKTRON BOSHQARUV TIZIMI

**Esonboyev Behzodbek Murodjon o'g'li**
Andijon mashinasozlik instituti,
"Transport logistikasi"kafedrasi assistenti
E-mail: behzodbek9711@mail.ru
Tel.: +9989941010919

O'zbekistonda elertromobillarini sotish va foydalanishni rag'batlantirish muhim masalalardan biri ekanligini bilamiz. Bu mavzuda dunyoda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Elertromobillar ekologik xavfsizlik va transport sohasini rivojlantirishning yangi tendensiyalari bosqichida turibdi. O'zbekiston esa, bu xususiy transport vositalaridan foydalanishni kengaytirish va ularni rivojlanish jadalligini oshirishni bir qancha ishlar amalga oshirlimoqda. Bundan tashqari global isishning ortib borayotgan bir paytda va atmosferaga chiqadigan zararli gazlar darajasini kamaytirish uchun shoshilinch chora-tadbirlarlar ko'rish zarur. Uglerod chiqindilarini kamaytirishning asosiy ustuvor yo'nalishi ichki yonuv dvigatelli avtomobillarni elektromobillarga almashtirish va ularning ob'ektlarida elektr energiyasidan foydalanishni faollashtirishdir.

Hozirgi vaqtda avtomobilsozlik sohasida yetakchi mamlakatlarda muqobil energiya Uning manbalaridan foydalangan holda elektromobil sanoatining kelajakdagi rivojlanishi uchun bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Avtomobillarning atrof-muhitga zararli ta'sirini kamaytirish uchun ushbu usulda harakatlanadigan elektromobillar istiqbolli deb hisoblanadi.

Elektron boshqaruv tizimi xavfsizlik, energiya tejash va yo'lovchilarning qulayligini ta'minlashga qaratilgan bir nechta funksiyalarni bajarishga xizmat qiladi:

- yuqori kuchlanishga nazorat qilish;
- tortish tartibga solish;
- optimal boshqarish rejimi;
- silliq tezlashtirish uchun nazorat qilish;
- batareyaning to'ldirish baholash;
- tormoz davomida generatsiya tizimga nazorat qilish;
- elektr energiyasi energiyadan foydalanish nazorat qilish [1].

Strukturaviy ravishda tizim bir qator kirish datchiklarini, blokni, boshqaruvchi va turli elektr transport vositalarining akumulyatorlar birlashtiradi. Kirish sensorlari gaz va tormoz pedallarining holatini, vites selektorini, tormoz bosimini va akkumulyatorning zaryad holatini baholash uchun ishlatiladi. Kirish sensorlaridan olingan ma'lumotlarga asoslanib, boshqaruv bloki muayyan shartlar uchun elektr transport vositasining

optimal harakatini ta’minlaydi. Elektr energiyasini iste’mol qilish va qayta tiklash, shuningdek, batareyani zaryadlash kabi elektromobilning ishlashi haqidagi ma’lumotlar asboblar panelida aks etadi [2].

Yangi istiqbolli texnologiyalarni ishlab chiqish, shuningdek, texnologik ta’minlash va ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha asosiy xarajatlarni o‘z zimmasiga olgani bilan izohlanadi. Mutaxassislarning fikricha, 2025-yilga borib elektromobillar savdosi jahon yengil avtomobillari savdosining [3-4] 25 foizini, 2030-yilga borib esa elektromobillar savdosini tashkil qiladi. bilan gacha 2040 yilda 38% bilan qadar 68% tartibga solingan qilish mumkin (Wolschendorf va boshqalar, 2010). 1.-diagrammada 2023 yilgacha va 2040 yilgacha elektromobillar ishlab chiqarish bo‘yicha qisqa muddatli va uzoq muddatli prognozlar ko‘rsatilgan. Raqamdan ko‘rinib turibdiki, 2017 yildan boshlab Xitoy elektromobillar ishlab chiqarish bo‘yicha yetakchi hisoblanadi. Yevropa Ittifoqi va AQSh mos ravishda ikkinchi va uchinchi o‘rinlarda.




b)

1 - rasm Dunyoda elektromobillar ishlab chiqarishga haqida bashorat

Yengil avtomobillari savdosi 2020-yilda eng yuqori cho‘qqiga chiqdi. Bunday mashinalar sotuvi endi pasayib bormoqda (McKerracher va boshq., 2023). 2040 yilga kelib, dunyodagi yo‘llarning 30% dan ortig’i elektromobillar bo‘ladi, Xitoy va Evropada elektr avtomobillarning 50% dan ortig’i to‘g’ri keladi [5-7].



2 - rasm Dunyoda ishlab chiqarilgan ichki yonuv dvigatelli avtomobillar yoqilg'isi elementar avtomobillar va elektromobillar nisbat o'zgarishlar

Elektromobillarning jahon bozori yildan-yilga o'sib bormoqda va yaqin 10 yil ichida bozor hajmi an'anaviy avtomobil bozori (Electro-Offensive va Number One) bilan taqqoslanadi. Biroq, Rossiya elektr avtomobili bozor yomon rivojlangan. Rossiyada sotuvni cheklovchi omil, birinchi navbatda, elektromobillarning yuqori narxi va Yaponiya, AQSh va Evropa Ittifoqiga katta hajmni etkazib beradigan ishlab chiqaruvchilarning cheklangan ishlab chiqarish quvvatidir. Hozirgi vaqtda Rossiya Federatsiyasining elektromobillar bozori umumiy transport hajmining 0,10 foizini tashkil qiladi [8]. Biroq, bozor o'sib bormoqda va zaryadlash infratuzilmasi va tartibga solish omillari mavjudligidagi cheklovlar bilan bog'liq. Mutaxassislarning fikricha, elektromobillar sotuvi ham tannarxning pasayishi va bitta akkumulyator bilan ishlaydigan elektromobillar assortimentining ko'payishi bilan ortishi kutilmoqda. Mutaxassislar bir quvvatlanishda 500 km dan ortiq masofani bosib o'tishadi Evropa Ittifoqidagi eng yirik EV bozori segmenti bo'lgan bozorning 10% gacha bo'lgan EV sotuvining sezilarli darajada oshishini prognoz qilmoqdalar. hozirgi tendentsiyaga mos keladi [9].

Xulosa qilib aytganda elektromobillarning zamonaviy davri texnologik va ekologik jihatdan jiddiy yutuqlar davri hisoblanadi. Yangi avlod akkumulyator texnologiyalari, avtonom haydovchi tizimlari, davlat tomonidan ko'rsatilayotgan e'tibor va ekologik talablarga moslashish elektromobillarni avtomobil sanoatining muhim qismiga aylantirdi. Bu transport vositalari nafaqat individual foydalanuvchilar, balki butun global transport infratuzilmasini qayta shakllantirishda katta o'rin egallaydi. XXI-asr transportining kelajagi elektromobillar atrofida shakllanayotgani aniq va bu jarayon global iqlim o'zgarishi muammosini hal qilishda ham katta rol o'ynaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. U.S. Environmental Protection Agency (EPA). (2021). Electric Vehicle Benefits and Considerations. Retrieved from https://www.epa.gov/greenvehicles.
2. International Energy Agency (IEA). (2022). Global EV Outlook 2022. Paris: IEA Publications.
3. Smith, K. (2020). The Electric Vehicle Revolution: Challenges and Opportunities. Cambridge University Press.
4. Matulka, R. (2014). The History of Electric Vehicles. U.S. Department of Energy. Retrieved from https://www.energy.gov/articles/history-electric-car.
5. Brown, M., & Hendricks, M. (2020). Electric Cars: The Future of Transportation? New York: HarperCollins.

6. Norbye, J. P. (1977). The Electric Car: Development and Future of Battery, Hybrid, and Fuel-cell Cars. Chilton Book Co.
7. Murodjon o'g'li, E. B., & Husniddin G'ulomjon o'g, U. (2024). INTELLEKTUAL BEKATLARNI LOYIHALASH. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 3(29), 198-203.
8. Murodjon o'g'li, E. B., & Farhod o'g'li, I. S. (2024). SHAHAR HUDUDLAR YO 'NALISHLARIDA BEKATLARIDA TO 'XTASH REJALASHTIRISH VA LOYIHALASH YO 'LOVCHI TASHISH TRANSPORTINING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI. Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research, 2(1), 46-49.
9. Muxammadaliyevich, A. A. (2022). TRANSPORT VOSITALARIGA AVTOTURARGOHLARNI TASHKIL ETISH BO 'YICHA XORIJIY TAJRIBA. Scientific Impulse, 1(4), 760-763.

# CLIL METODIKASI ORQALI TALABALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

**Tursunova Kamola Ulug'bek qizi**

Maktabgacha ta'lim metodikasi
kafedrasi o'qituvchisi

CLIL metodikasi yordamida talabalar nutqini rivojlantirish o'quv jarayonida mazmun va tilni birlashtirgan holda erishilishi mumkin. CLIL nutq ko'nikmalarini rivojlantirish uchun yaxshi imkoniyatlar yaratadi, chunki talabalar tilni amaliy qo'llash orqali muloqot qilishga o'rganadilar. Quyida CLIL orqali talabalar nutqini rivojlantirishga yordam beradigan asosiy yondashuv va usullar keltirilgan: Mavzuga oid tilni amaliy qo'llash CLIL darslari davomida talabalar fanga oid termin va iboralarni o'rganib, ularni amaliy mashg'ulotlarda ishlatadilar. Masalan, biologiya darsida hayvonlar anatomiyasi haqida o'qiganda, ular shu mavzuga tegishli terminlarni amalda qo'llaydilar, bu esa ularning leksik zaxirasini boyitadi va nutqining aniq va tushunarli bo'lishiga yordam beradi.Muloqot va muhokama faoliyatlarini o'tkazish Talabalarni kichik guruhlarga bo'lib, birgalikda loyihalar va muhokamalarda ishtirok etishga undash nutq ko'nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, ilmiy mavzularda bahs yuritish, loyihalarni taqdim qilish va guruhlarda munozara qilish talabalarni o'z fikrlarini aniq va ravon ifodalashga o'rgatadi. Til va mazmunni integratsiya qilish orqali refleksiya qilish Talabalarni o'z fikrlari, o'qitilgan mavzular va o'rgangan yangi bilimlari haqida yozma yoki og'zaki ravishda tahlil qilishga undash ularning tanqidiy fikrlash va o'z nutqini ravon ifodalash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Til modellarini taqdim etish. CLIL darslarida o'qituvchi mavzuga tegishli til modellarini o'rgatib, talabalarga tilni qanday foydalanishni namoyish etadi. Masalan, o'quvchilar qaysi ibora yoki so'z birikmasini qanday kontekstda qo'llashni o'rgansalar, ularni nutq jarayonida yanada samarali ishlatadilar. Vizual va interaktiv vositalardan foydalanish CLIL metodikasi vizual materiallar va interaktiv texnologiyalardan foydalanishni qo'llab-quvvatlaydi. Vizual yordamchi vositalar (slaydlar, rasmlar, diagrammalar) talabalar uchun yangi tushunchalarni aniqroq va esda qolarli qilish bilan birga, ularga nutq davomida ko'mak beradi. Til ko'nikmalarini baholash va rivojlantirish CLIL darslarida o'quvchilarning nutqiy rivojlanishini muntazam ravishda baholab borish ularga aniq va tushunarli fikr bildirish, ravon gapirish va qiyin terminlarni bemalol qo'llashga o'rgatadi. Baholash ko'nikmalari esa talabalarni rivojlanishga undaydi. CLIL metodikasi nafaqat mavzularni o'zlashtirish, balki tilni ravon va mantiqiy ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ham qulay imkoniyatlar yaratadi. Shu usullar orqali talabalar nafaqat fanga oid bilimlarni egallaydilar, balki o'z nutqini ham izchil rivojlantiradilar. CLIL metodikasi yordamida talabalar nutqini rivojlantirishda

ko'plab qo'shimcha yondashuv va usullar mavjud. Quyida bu usullar yanada batafsil yoritilgan: Matn tahlili va o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish. CLIL darslarida o'qituvchi talabalar bilan mavzuga oid matnlarni tahlil qilish orqali ularga til strukturalarini, yangi so'zlarni va iboralarni o'rgatadi. Bu usul o'quvchilarning nafaqat tushunish ko'nikmalarini, balki o'z fikrini aniq ifodalash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Matnlar ko'pincha turli sohalardan olinib, mavzularni kengroq kontekstdagi til ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi. Rolli o'yinlar va ijodiy topshiriqlar Rolli o'yinlar va ijodiy topshiriqlar (masalan, intervyular, taqdimotlar) talabalarni real hayotda nutqiy vaziyatlarda qatnashishga o'rgatadi. Bu kabi mashg'ulotlarda talabalar mavzu asosida o'z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muayyan vaziyatlarga javob qaytarish kabi nutqiy ko'nikmalarini o'stiradilar. Til va fanga oid o'zaro bog'liq faoliyatlar O'qituvchilar CLIL darslarida fanga oid va tilga oid o'zaro bog'liq topshiriqlar berib, o'quvchilarga bir mavzuni turli uslublarda tushuntirishni o'rgatadilar. Masalan, tarix darsida talabalarga tarixiy voqealar haqida hikoya qilish, ilmiy faktlarni izohlash topshirig'i berilishi mumkin. Bu ularning murakkab tushunchalarni ifodalash ko'nikmalarini kuchaytiradi. Qiyoslash va kontrast qilish usuli CLIL o'quv jarayonida qiyoslash usuli til ko'nikmalarini chuqurlashtirishda juda samarali. Masalan, talabalarga turli tarixiy davrlar, biologik jarayonlar yoki matematik modelning o'ziga xosliklarini qiyoslash va kontrast qilish vazifalari beriladi. Bu, talabalarni ko'p turli so'z va iboralarni amalda ishlatishga, o'z fikrlarini aniq ifodalashga undaydi.Savol-javob asosida tahlil va muhokama qilish

O'qituvchi o'quvchilarga muayyan mavzular bo'yicha ochiq savollar berib, ularni mustaqil fikrlashga undaydi. CLIL darslarida savol-javob asosida olib boriladigan muhokama faoliyatlari talabalar o'z nutqlarini shakllantirish, murakkab savollarga javob berish va izohlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Yozma topshiriqlar va yozma nutqni rivojlantirish CLIL darslarida yozma nutqni rivojlantirishga e'tibor beriladi, masalan, esse, ilmiy maqola yoki qisqa xulosalar yozish orqali talabalar o'z fikrlarini ravon va aniq ifodalashga o'rganadilar. Yozma nutqni rivojlantirish og'zaki nutq ko'nikmalariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.Refleksiya va fikr almashish O'quvchilar CLIL darslarida o'z bilim va ko'nikmalari haqida fikr yuritib, qaysi jihatlarni yaxshilash kerakligi haqida mulohaza yuritadilar. Refleksiya jarayoni o'quvchilarni chuqurroq fikrlash va o'z til ko'nikmalarini mustahkamlashga undaydi. Til strategiyalarini o'rgatish .O'qituvchi o'quvchilarga notanish so'zlarni kontekstdan anglab olish, sinonimlar yordamida tushunish va o'z tushunmagan iboralarni qayta ifodalash kabi strategiyalarni o'rgatadi. Bu esa talabalarga o'z nutqlarini yanada tushunarli va qulay ifoda qilish imkonini beradi. CLIL yordamida talabalar o'rgangan til ko'nikmalarini fanga oid bilimlar bilan birlashtiradi, bu esa ularga qiyin mavzularni ham aniq tushuntirish imkonini beradi. Shu orqali talabalar tilni chuqurroq va boyroq tarzda o'zlashtirish bilan birga, murakkab fikrlarni tushunarli qilib ifodalashga erishadilar.

## Foydalanilgan adabiyotlat

1.G'ulomov A., Shoabduraxmonov Sh., Asqarova M. O'zbek tili darsligi: 9 - sinf uchun. – T.: O'qituvchi. 1986.

2.Hayitova O. Umumkasbiy fanlarni o'rganishda elektron vositalarni tatbiq etish orqali fanlararo integratsiyani ta'minlash yo'nalishlari // "Uzluksiz ta'lim", 2008, 2-son.

3. Abduraxmonov D. Xo'jayeva G. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: "O'qituvchi", 2003.

# АНАМНЕСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЖЕНЩИН С ПРЕЖДЕВРЕМЕННОЙ ИЛИ РАННЕЙ МЕНОПАУЗОЙ

**Саломова Шахинабону Олим кизи[1]**
**Туксанова Дилбар Исматовна[2]**

РИО ва БСИАТМДМ Бухарский филиал[1]
Бухарский Государственный медицинский институт[2],
Бухара, Узбекистан.

**Актуальность.** Всемирная организация здравоохранения разработала глобальную стратегию и план действий по старение и здоровье, чтобы люди жили лучше и дольше. Средняя продолжительность жизни женщин увеличилась почти на 10 лет за последние полвека и в настоящее время составляет примерно 78-86 лет в большинстве европейских стран [1,3]. Это ведет к тому, что почти половину их жизни им приходится жить в период менопаузы с постоянным риском развития ряда симптомов и заболеваний дефицита эстрогена [2].

**Цель исследования.** Оценить роль анамнестических данных в диагностике преждевременной или ранней менопаузы.

**Материалы и методы исследования.** В общей сложности мы исследовали 29 женщин с ПМ и 22 женщин с РМ. Проводилась оценка антропометрических данных с вычислением индекса массы тела (ИМТ), осмотр молочных желёз, гинекологическое исследование с исследованием мазка на онкоцитологию (PAP-smeartest), Лабораторные исследования включали исследование ФСГ, ЛГ, АМГ, эстрадиола методом иммуноферментного анализа, с использованием автоматического фотометра для микропланшет ELx808™ (USA).

**Результаты исследования и их обсуждение.** Среди обследованных женщин преобладали служащие (93 %), домохозяйки составили 7 %. Почти все пациентки имели высшее образование (91 %), 9 % женщин были со средне-специальным образованием. 6 % обследованных женщин сообщили о наличии профессиональных вредностей, курение в анамнезе отмечено у 5 (17,3 %) пациенток, при этом 14 % были активными курильщицами более 7 лет, а на момент обследования данную вредную привычку имели 2 (7 %) женщины. Среди жалоб у женщин, вошедших в регистр ПНЯ, чаще всего встречались депрессия (83 %), приливы (76 %), тревога (69 %), нарушения менструального цикла (65 %). Средний возраст менархе составил 13,40 ± 0,45 года. При анализе показателей репродуктивной функции установлено, что 14 женщин (48 %) в анамнезе имели беременности, из них у 12 (41 %) беременности закончились родами. При этом одни роды в анамнезе были у 6 (21 %) пациенток, 2 родов – у 5

(17 %), 3 родов в анамнезе имела 1 женщина (3,5 %). Аборты отмечены у 6 пациенток (21 %), и 2 женщины (7 %) имели внематочную беременность. Трое имели дважды безуспешные попытки ЭКО. Из сопутствующей соматической патологии чаще всего встречались заболевания щитовидной железы. Так, аутоиммунный тиреоидит (АИТ) был выявлен у 5 женщин (17 %) с ПНЯ, а гипотиреоз – у 3 (10 %). Метаболический синдром обнаружен у 2 пациенток (7 %), СД 2-го типа – у одной (3,5 %) и ожирение – у 3 (10 %) пациенток. Индекс массы тела (ИМТ) в среднем составил 22,8 ± 4,95 кг/м2, при этом 10 % пациенток имели ожирение и 1 женщина (3,5 %) – избыточную массу тела. Остеопороз зарегистрирован у 2 (7%) женщин, и остеопения – у 3 (10 %) пациенток. Среди перенесённых и сопутствующих гинекологических заболеваний у обследованных женщин наиболее часто регистрировался эндометриоз яичников.

При анализе структуры причин, приводящих к ПНЯ, оперативные вмешательства на органах малого таза были отмечены у 17 из 29 женщин (58 %), причём наиболее часто были произведены резекции яичников по поводу эндометриоза (17 %). В одном случае пациентка перенесла экстирпацию матки с придатками по поводу злокачественной опухоли яичника, без применения химиотерапии, кроме того, зарегистрирован случай ампутации матки по поводу послеродового атонического кровотечения. При проведении гормональных исследований средний уровень ФСГ составил 53 ± 27,4 МЕ/мл, ЛГ – 29 ± 14,01 МЕ/мл, АМГ – 0,16 ± 0,13 нг/мл, эстрадиола – 202,06 ± 112,6 нм/л. При ультразвуковом исследовании органов малого таза отсутствие фолликулярного аппарата отмечено у 17 из 29 женщин (59 %), количество антральных фолликулов менее 3 зарегистрировано у 7 (24 %) пациенток, у 2 женщин зарегистрировано отсутствие обоих яичников, один яичник отсутствовал у 3 пациенток. Необходимо отметить, что на момент обращения в отделение диагноз ПНЯ был поставлен только у 11 женщин. При этом только 5 из 29 пациенток (17 %) получали гормональное лечение по поводу ПНЯ: заместительную гормональную терапию (эстрадиол и дидрогестерон) использовали трое из них, а двое получали комбинированные оральные контрацептивы с эстрадиолом.

**Выводы.** В соответствии с результатами нашего исследования основными причинами овариальной недостаточности у женщин, вошедших в регистр ПНЯ в 2023–2024 гг., являлись хирургические вмешательства на органах малого таза и генетические факторы. Наиболее значимыми клиническими симптомами были депрессия, приливы, тревога. Таким образом, анамнез играет существенную роль в диагностике преждевременной и ранней менопаузы.

**Список литературы**

1. Абсатарова Ю. С., Андреева Е. Н. Преждевременная недостаточность яичников: современные аспекты ведения пациенток //Сборник тезисов III Всероссийской конференции с международным участием" Репродуктивное здоровье женщин и мужчин". – 2018. – С. 5-5.
2. Адамян Л. В. и др. Новые возможности хирургии в восстановлении утраченных функций яичников при преждевременной недостаточности яичников у женщин репродуктивного возраста //Доктор. ру. – 2019. – Т. 11. – №. 166. – С. 44-9.
3. Блинов Д. В. и др. Ранняя менопауза и преждевременная недостаточность яичников: проблемы и перспективы //Акушерство, гинекология и репродукция. – 2020. – Т. 14. – №. 3. – С. 328-345.

# ТАКОМИЛЛАШТИРИЛГАН АВТОМОБИЛЬ СЎНДИРГИЧЛАРИНИНГ СИНОВЛАРИ

**Насиров Илҳам Закирович**- т.ф.н., проф.
**Қўзиболаева Дилноза Тўхтасиновна**- таянч докторант.
Андижон машинасозлик институти, Андижон ш., Ўзбекистон

Сўндиргич- бу атмосферага чиқадиган газлар ёки турли хил қурилмалардан ҳаво шовқинини камайтириш учун қўлланиладиган мослама. Шамоллатиш тизимларида сўндиргичлар шамоллатиш ускунасидан каналлар орқали узатиладиган шовқинни камайтириш учун ишлатилади.

Бир вақтлар автомобиллар умуман сўндиргичларсиз ишлаб чиқарилган. Қисқа чиқариш қувурларидан тутун булутлари пайдо бўлиб, улар ўша пайтдаги двигателларнинг кичик кўрсаткичларига мутлақо мос келмайдиган даҳшатли шовқин чиқарар эдилар. Бироқ, атрофдаги пиёдаларнинг норозиликлари (ўша пайтда уларнинг сони автомобилларга нисбатан кўпроқ эди), шунингдек, отларнинг қўрқиб кетиши (отлар ўша пайтлар транспортида асосий тортиш кучи бўлган) шовқинни камайтириш қурилмаларининг зарурлигига олиб келди. Биринчи сўндиргич "Панар-Левассор" автомобилига 1894 йилда ўрнатилган [1].

Биринчи сўндиргич автомобилига ўрнатилгандан бошлаб то ҳозирги вақтгача ишлаб чиқарилаётган барча сўндиргичлар 1894 йилдаги каби ишлаш ва тузилиш принципидан фойдаланади. Сўндиргич конструкциясининг эволюцияси асосан уни ясашда ишлатиладиган материаллар (корпус, резонатор, ўтказгич ва бошқа қисмлар учун) таркиби ва ишлаб чиқариш технологиясини такомиллаштириш йўлида давом этиб келмоқда.

Лекин ҳозирда ишлаб чиқарилаётган сўндиргичлар ёнмаган углеводородлар, угелерод оксиди, угелерод 2-оксиди, азот ва олтингугурт оксидларини ушаб қола олмай ташқарига чиқариб юбормоқда.

Ушбу ёнмай қолаётган углеводородларни сўндиргичларда ёқиб юбориш ва заҳарли моддаларни заҳарсизлантириш учун мисол тариқасида "УзАвтомоторс" АЖда ишлаб чиқарилаётган "Оникс" автомобилининг сўндиргичи такмиллаштирилди, яъни сўндиргичнинг бошланғич қабул қилиш қувурига ўт олдириш свечаси жойлаштирилди.

Янги конструкциядаги сўндиргичларни такшириш ва таққослаш учун асосан "УзАвтомоторс" АЖда ишлаб чиқарилаётган автомобилларга ўрнатилаётган свечалар танлаб олинди. Лаборатория синовларида сўндиргичиларининг самарадорлиги қуйидаги

кўрсаткичлар бўйича таққосланди: двигателнинг қуввати, тирсакли валнинг айланишлар сони, ёнилғининг соатли сарфи (1- жадв.). Бунинг учун институтда ясалган Gazoline 1200 двигатели асосидаги стенд [7,8] ва газоанализатордан фойдаланилди.

1-жадв.

**Лаборатория синовларининг натижалари**

| № | Кўрсаткичлар номи | Ўлчов бирлиги | Одатий сўндиргич (назорат) | Одатий сўндиргичга 1 та ўт олдириш свечаси ўрнатилган | Одатий сўндиргичга 2 та ўт олдириш свечаси ўрнатилган |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Двигателнинг қуввати | кВт | 2,7 | 2,8 | 2,8 |
| 2. | Тирсакли валнинг айланишлар сони | айл/мин | 3500 | 3500 | 3500 |
| 3. | Ёнилғи сарфи | г/кВт соат | 114 | 110 | 107 |
| 4. | Углерод оксиди CO | % | 4,15 | 3,26 | 2,87 |
| 5. | Ёнмаган углеводородлар CH | % | 5,26 | 3,58 | 3,16 |

1- жадвалдан кўриниб турибдики лаборатория синовларида Одатий сўндиргичга 1 та ўт олдириш свечаси ўрнатилган 3- вариантда двигателнинг эффектив ёнилғи сарфи 107 г/кВт соатни ташкил этди, бу эса 1- вариант, яъни двигателнинг Одатий сўндиргич (назорат) вариантида ишлаганидаги эффектив ёнилғи сарфи 114 г/кВт соатга нисбатан 6,54 % га камдир. Ишланган газлар таркибидаги углерод оксиди COнинг миқдори бўйича Одатий сўндиргичга 2 та ўт олдириш свечаси ўрнатилган 3-вариантда 2,87 % ни ташкил этди, бу эса 1-вариант, яъни двигателнинг сўндиргич (назорат)га- 4,15 % га нисбатан 44,6 % камдир [11-14].

Ёнмаган углеводородлар CH миқдори бўйича Одатий сўндиргичга 2 та ўт олдириш свечаси ўрнатилган 3- вариантда 3,16 %ни ташкил этди, бу эса 1- вариант, яъни двигателнинг Одатий сўндиргич (назорат) 1-вариантида ишлаганидаги CH миқдори 5,26 % га нисбатан 66,46 % га камдир [15,16].

Лаборатория шароитидаги синовларнинг натижаларига кўра барча кўрсаткичлари энг юқори бўлган Одатий сўндиргичга 2 та ўт олдириш

свечаси ўрнатилган 3- вариант танлаб олинди ҳамда унинг кичик партиядаги нусхаларини ясаб кенгроқ синовлардан ўтказиш учун тавсия этилди.

**Адабиётлар**

1. Худойбердиев Т.С., Носиров И.З., Қосимов И.С. Ички ёнув двигатели учун ўт олдириш свечаси ва уни ўрнатиш таглиги.// Научно-технический журнал ФерПИ (STJ FerPI), 2018, (No.1), с. 46- 52.

2. Насиров И. З., Юсупбеков Х. А. Результаты испытаний различных свеч зажигания для ДВС современных автомобилей // «Интернаука» Научный журнал № 39(168), Октябрь 2020 г. с. 28-31.

3. Насиров И. З., Бозаров О. О., Алматаев Н. Т., Нуманов М. З. Усовершенствованные свечи зажигания для двигателя внутреннего сгорания// Молодой ученый ISSN 2072-0297 № 17/2019, Казань: «Молодой ученый», с.38-40.

4. Новые свечи зажигания для ДВС//"Замонавий имл-фаннинг инновацион ривожланиши" мавзусида республика миқёсидаги илмий-амалий анжуман мақолалар тўплами. Андижон: АндМИ- 2019, 542-545 б.

5. Насиров И. З., Юсупбеков Х. А. Ўт олдириш свечасини такомиллаштиришда «Морфологик таҳлил» методидан фойдаланиш // «Молодой учёный» № 43 (333), 2020- с. 348-350.

6. Nasirov I.Z. Ichki yonuv dvigatellari uchun o't oldirish svechalari //"Илм- фан, таълим ва ишлаб чиқаришнинг инновацион ривожланитиришдаги замонавий муаммолар" мавзудаги халқаро илмий- амалий конференция материаллари. Андижон: АндМИ, 2020, 537-542 б.

7. Насиров Илхам Закирович, & Кузиболаева Дилноза Тухтасиновна. (2022). Результаты испытаний электролизеров. *Journal of New Century Innovations*, *17*(1), 119–120. Retrieved from http://www.newjournal.org/index.php/new/article/view/876

8. Насиров Илхам Закирович- т.ф.н., доцент, Қўзиболаева Дилноза Тўхтасиновна- изланувчи. Андижон машинасозлик институти, Ўзбекистон. "Ички ёнув двигателларининг энергетик ва экологик кўрсаткичларини яхшилаш". Research and education issn: 2181-3191 volume 1 | issue 7 | 2022 Scientific Journal Impact Factor 2022: 4.628 http://sjifactor.com/passport.php?id=22258.

9. Закирович, Н. И., Жалолиддин ўғли, А. С., & Тухтасиновна, К. Д. . (2023). "Экологические преимущества использования отходов." Новости образования: исследование в XXI веке, 1(7), 345–351. извлечено от https://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/5247

10. Nasirov Ilham Zakirovich- candidate of technical sciences, associate professor; Kuzibolaeva Dilnoza Tukhtasinovna- doctoral student. Abbasov Saidolimkhon Zhaloliddin ugli- doctoral student; Andijan Machine-

Building Institute, Uzbekistan "Analysis of Automobile Mufflers"//"Texas Journal of Engineering and Technology" ISSN NO: 2770-4491 https://zienjournals.com Date of Publication:07-01-2023.

11. Ilkham Z. Nasirov, Dilnoza T. Kozibolaeva, Saidolimkhon Z. Abbasov Andijan Machine-Building Institute, Andijan, Uzbekistan *E-mail: nosirov-ilhom59@mail.r "New Approaches To Cleaning Exhaust Gases Of Internal Combustion Engines"." Texas Journal of Engineering and Technology" ISSN NO: 2770-4491 https://zienjournals.com Date of Publication:08-06-2023 Peer Reviewed International Journal [46] Volume 21.

12. Gaffarov Makhammatzokir Toshtemirovich, Nasirov Ilham Zakirovich , Sobirova Tursunoy Abdipatto kizi , Hakimov Mavlonbek Solijon ugli. (2023). Recovery Of Fines From Drivers Of Foreign Vehicles. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 3589–3591. https://doi.org/10.47750/pnr.2023.14.03.446.

13. Nasirov Ilkham Zakirovich- Ph.D., Gaffarov Mukhammadzokir Toshtemirovich, Doctoral Student. (2023). Consequences Of Complete And Undercombustion Of Fuel. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 3597–3603. https://doi.org/10.47750/pnr.2023.14.03.448.

14. Nasirov Ilxam Zakirovich, & Akromjonova Sayyoraxon Baxtiyor qizi. (2023). YO'L BOSHQARUVINI INTELLEKTUAL AXBOROT TIZIMLARI ASOSIDA AVTOMATLASHTIRISH . *Journal of New Century Innovations*, *21*(4), 122–127. Retrieved from http://www.newjournal.org/index.php/new/article/view/3070

15. Насиров Илхам Закирович. (2023). ИНСОН ҚОБИЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНИШИНИНГ ДАРАЖАЛАРИ . *Journal of New Century Innovations*, *21*(4), 118–121. Retrieved from http://www.newjournal.org/index.php/new/article/view/3069

16. Zakirovich, N. I. ., & Mahammadovna , S. I. . (2023). LEVELS OF DEVELOPMENT OF HUMAN ABILITIES. *Новости образования: исследование в XXI веке*, *1*(7), 341–344. извлечено от http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/5245

17. Закирович, Н. И. ., Жалолиддин ўғли, А. С. ., & Тухтасиновна, К. Д. . (2023). ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОТХОДОВ. *Новости образования: исследование в XXI веке*, *1*(7), 345–351. извлечено от http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/5247

# O’ZBEK ADABIYOTIDA DETEKTIV JANRI TARAQQIYOTI

**Xolmirzayeva Diyora Xatamboy qizi**
Mustaqil tadqiqotchi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada detektiv janrining o’zbek adabiyotidagi o’rni,uning mazmun-mohiyati hamda uning paydo bo’lish sabablari,omillari, taraqqiyoti buyuk ma’rifatparvar ijodkor Abdulla Qodiriyning o’zbek detektiv adabiyotiga qo’shgan hissasi haqida so’z boradi.

**Kalit so’zlar:** detektiv adabiyoti, sobiq sovet hukumati detektiv adabiyoti, o‘zbek detektiv adabiyoti,Abdulla Qodiriy

Ma’lumki, jahon adabiyotida detektiv asarlar dastlab XIX asrda, aniqrog‘i 1840-yillarda yozila boshlangan. Amerikalik yozuvchi va adabiy tanqidchi Edgar Allan Po (1809–1949) ushbu janrning asoschisi sifatida e’tirof etiladi va uning “Morg ko‘chasidagi qotillik” (1841), “Mariya Rojening siri” (1842), “O‘g‘irlangan maktub” (1844) kabi hikoyalari detektivning ilk namunalari hisoblanadi.

“Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati”da detektiv lotincha detectio – fosh qilish, inglizcha detect – ochilish, detective – josus kabi ma’nolarni anglatadi. Detektiv – biror jinoiy ish bilan bog‘liq bo‘lgan yashirin, sirli, mantiqiy jihatdan murakkab tahlil orqali ochishga bag‘ishlangan badiiy asarlar majmui. Detektiv asar syujet xarakteriga ko‘ra, ma’lum bir jumboqli hodisa sodir etiladi va fosh etilishi lozim bo‘lgan hodisaning oxirgi nuqtasidan tahlil boshlanadi.

Umuman olganda, o‘zbek adabiyotida detektiv janrining paydo bo‘lishi bevosita dostonlar, “Uch og‘a-ini botirlar” kabi bir qancha ertaklarda gunohkorlarni qidirish, jazolash jarayonlari bilan bog‘liq sahnalar uchraydi. Ayni jarayonlarda detektiv adabiyotning unsurlari mavjudligini e’tirof etish mumkin. Jadid adabiyoti yorqin namoyondasi Abdulla Qodiriyning “Shubha” nomli kichik hikoyasida detektiv janrga xos ba’zi xususiyatlarni ko‘rish mumkin, ammo uni to‘laqonli detektiv asar deb bo‘lmaydi. Shuningdek, “O‘tkan kunlar” romanida ham detektiv janri unsurlarini ilg‘ash mumkin. Masalan, asarda Homidning jinoyatlarini fosh qilish uchun Otabekning nihoyatda puxtalik bilan harakat qilishi jahon detektiv adabiyotidagi mohir izquvarlarni yodga soladi[1].

O‘zbek adabiyotida detektiv 1960-yillarda Iskandar Qalandarovning “Shoxidamas, bargida...” qissasi bilan vujudga kelgani aytiladi. Asar jamiyatning “qora guruhlari” qilmishlarini fosh etishga qaratilgan bo‘lib, unda o‘g‘rilik, zo‘ravonlik, qotillik, qallobliklar aks ettirilgan. Taassufki, muallif o‘z davrida adabiyotshunos Sobir Mirvaliyev tomonidan “sho‘ro voqeligiga yot asar” yozgani, “hayotimiz uchun tipik bo‘lmagan narsalarni umumlashtirish ketidan quvgan”i, militsiya xodimlari va jamiyat kishilarini shunday jinoyatlar sodir bo‘lishiga yo‘l qo‘yib bergan “merov, lapashang” sifatida tasvirlagani uchun ayblangan. Ammo o‘zbek adabiyotida ham ushbu janr taraqqiy etdi.

Oʻlmas Umarbekovning "Fotima va Zuhra" romani, "Yoz yomgʻiri" qissasi, Fayzulla Qilichevning "Zanjir", Said Ravshanning "Chordoqda otilgan oʻq", Omon Muxtorning "Moʻjiza", Botir Nosirovning "Oltin qasr fojeasi" kabi asarlari janr takomiliga xizmat qildi. Oʻzbekiston xalq yozuvchisi Tohir Malikning 1992–2000-yillar oraligʻida yaratilgan 5 kitobdan iborat "Shaytanat" asari esa oʻzbek detektivining eng yuksak namunasi sifatida e'tirof etiladi. Hatto Togʻay Murod bu haqda toʻxtalib, "Bugungi kunda uloq Tohir Malikda ketdi", degan edi. "Shaytanat" shu qadar shuhrat qozondiki, eng koʻp oʻqiladigan va eng koʻp chop etiladigan asarga aylandi. Tadqiqotchilar uni amerikalik yozuvchi Mario Pyuzoning mashhur "Choʻqintirgan ota" romani bilan qiyosiy oʻrganib, oʻzbek detektivining jahoniy imkoniyatlarini koʻrsatib berishdi.

Sobiq sovet hukumati davrida janr rivoji birmuncha toʻxtab qoldi. Chunki, Hukumat tepasida turgan "daho"larga xalqni uygʻatuvchi, qaysidir ma'noda faqat koʻz oʻngidagi voqelikni emas uning ortini, asl mohiyatini koʻra bilishni oʻrgatuvchi asarlar mutlaqo kerak emas edi. Biroq, yonib yashovchi ijod ahlini jahonda kriminalistika uslubi jadal rivojlanib borayotgan davrda ushbu taqiq ostida uzoq vaqt mobaynida ushlab turish imkonsiz edi. XX asrning 60-yillari boshida oʻsha jimgina tutab turgan gulxan alangalandi, ya'ni Iskandar Qalandarovning "Shohidamas, bargida…" qissasi yaratildi. Mazkur asarning yangi janrdagi ilk urinishlardanligi diqqatga sazovor. Ammo, asarni badiiy jihatdan mukammal asar, deb boʻlmaydi[2].

Abdulla Qodiriy Alloh bergan noyob, benazir iste'dod sohibi edi. U 1915-yilda yozilgan "Juvonboz" nomli ilk hikoyasi  Oʻzbekiston Respublikasi fan arbobi, professor Sobir Mirvaliyevning ta'biri bilan aytganda "nafaqat adib ijodida ,balki Fitrat,Cho'lpon hikoyalari kabi butun bir XX asr o'zbek adabiyotida realistik  nasriy asarlarning tug'ilishini boshlab bergan asarlardan biri sifatida ham ahamiyatli edi". Eng qizigʻi, adibning ilk hikoyasi boʻlgan "Juvonboz"da detektiv unsurlarini uchratamiz. Sa'dulla "raqiblari" boʻlgan Eshnazar, Boqi sarkor va Kichikxoʻja joʻraboshini aldab bogʻga chaqiradi va ziyofatda may berib, yiqitadi... Oradan bir-ikki kun oʻtgach, ularning yoʻqolgani ma'lum boʻladi. Politsiya qidirishni boshlaydi. Gumonlanuvchilar qatori Sa'dulla bilan Rahimjon ham soʻroq qilinadi, biroq ikkisi ham ularni tanimasliklarini aytishadi, ammo "baxtga qarshi mazkur yoʻqolgʻonlar bilan ilgari gaplashib va samovar-choyxonalarda birga choyxoʻrlik qilub yurganlarini bir necha yigitlar ma'lum qilgʻanlikdan politsiya fahmlab, har ikkisining uylarini taftish qilib, ikkisidan ham qonlik koʻylaklar topdi. Politsiyaga bu katta nishona boʻldi", deyiladi asarda. "Va Rahimjon bunga bir sabab koʻrsatib berolmay yigʻlamoqgʻa boshladi va Sa'dullaning qochib ketgani, oʻldurganliklariga katta dalil boʻlurday boʻlub qolgʻani uchun politsiya toʻgʻri ikkisini turmaga yopti" kabi tasvirlarni oʻzbek adabiyotidagi ilk detektiv uchqunlari deyish mumkin.

Bu yoʻnalishda O. Muxtor, X. Doʻstmuhammad kabi adiblar ham yaxshi asarlar yaratdilar. Ushbu va yuqorida sanab oʻtilgan ijodkorlarning asarlarida

detektiv janrida yetakchi omil sanaluvchi kriminalistik uslub yetakchilik qiladi. Ammo, har bir asarda u o'quvchiga turli xil shaklda yetkaziladi. Masalan, Tohir Malikning "Shaytanat" romanida kitobxon dastlab voqelikdaan xabardor bo'lib, asarni o'qish davomida uni qanday yuzaga kelganligi sirini ochib boradi. Ayrim, o'rinlarda voqelikdan xabardor bo'lish kitobxonga o'zini hakamdek his qilish imkonini beradi. U chetdan asar qahramonlari qabul qilayotgan qarorlarini to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aql tarozisida tortib ko'radi va bevosita ma'naviyatini boyitib, o'zini tarbiyalab boradi. O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" qissasida ham bevosita detektiv janr shakllari ko'zga tashlanadi. Adib asardagi jumboq sirini asar oxiriga olib qo'yadi. Kitobxon asarni o'qish mobaynida har bir qahramon hayotida yashab, kechinmalarini birgalikda his qilib ko'radi. Yozuvchi kitobxonni har bir shubha-gumonni mulohaza qilib ko'rishga undaydi. Natijada, kitobxon mutolaa mobaynida asar ichida yashaydi.

Qolaversa, yuqorida keltirilgan detektiv asarlar o'zining sodda, xalqchil, tushunarli va o'qish mobaynida kitobxonda zerikish hissini uyg'otmaydigan ayricha lingvistik uslubda bitilganligi asar qiymatini yanada boyitadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Мирвалиев С. Наср, давр ва қаҳрамон. –Тошкент.: Адабиёт ва санъат, 1983.-32 б.

2. Озод рўмон орзуси (Ёзувчи А. Саид ва мунаққид А. Отабой суҳбати) // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. -1996, 12 апрель.

3.Murch A. (1958) Detektiv romanlar rivojlanishi bosqichlari. London : Peter Owner Ltd,. 272 b.

4. Murphy B. (2002) Qotillik va jumboq entsiklopediyasi. Basingstoke : Palgrave Macmillan,. 560 b

5. Раҳмонов И. Саргузашт асарларда анъана ва замонавийлик.-ЎТА, 1979,5-сон,- Б. 72-76

# ANALYSIS OF TRANSPORT VEHICLES' MOBILITY, MANEUVERABILITY, SUITABILITY FOR CARRYING DIFFERENT LOADS

**USMONOV AZIZBEK XXX**
Andijan Machine-building Institute,
Faculty of Transport and Logistics,
3rd-year student
+998999937328

**Annotatsiya:** The article provides information on the mobility, maneuverability of vehicles, their suitability for transporting various loads, the classification of highways, the carrying capacity of highways, and the calculation of the carrying capacity of a road lane.

**Key words:** Cargo transportation rules, waiting times, maneuvering, time, loading-unloading times.

**Annotatsiya:** Maqolada transport vositalarining harakatchanligi, manevr qobiliyati, ularning turli xil yuklarni tashish uchun yaroqliligi, avtomobil yo'llarining tasnifi, avtomobil yo'llarining yuk ko'tarish qobiliyati va yo'l chizig'ining ko'tarish qobiliyatini hisoblash haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** yuk tashish qoidalari, kutish vaqtlari, manevr qilish, vaqt, yuklash-tushirish vaqtlari.

**Аннотация:** В статье приведены сведения о мобильности, маневренности транспортных средств, их пригодности для перевозки различных грузов, классификации автомобильных дорог, пропускной способности автомобильных дорог, расчете пропускной способности дорожной полосы.

**Ключевые слова:** правила перевозки грузов, время ожидания, маневрирование, время, сроки погрузки-разгрузки.

The duration of idleness during loading and unloading of vehicles is one third of his working time. In short distances, the performance of the content in motion changes by 50%. tn-p-idle time consists of the following elements: waiting time, maneuvering time, loading and unloading time, document processing time. Waiting time is the time when cargo owners do not prepare for shipment, they rarely miss loading and unloading points when receiving cargo, uneven arrival of vehicles at designated points.

Vehicle maneuvering time depends on the size of the field, the paths to maneuver, and the type of content in motion. Loading-unloading time itself is the loading and unloading of cargo into the moving structure, including the time of bridging, lashing of cargo and other operations to ensure the safety of the cargo during transportation. Loading and unloading operations are distinguished between mechanized and non-mechanized. The possibility of releasing a loading point is considered to be the maximum number of loading and unloading of active content in one hour.

The number of vehicles that can be loaded or unloaded per hour is called release capacity. Pick-up and drop-off points are permanent and temporary. Fixed loads are processed at fixed points. Work at temporary points is done with rest. Most of them are seasonal. The number of loading and unloading posts, loading or unloading points in the assignment must match, which is determined by the load rotation task or the number of vehicles to be loaded in 1 hour. In production, loading and unloading work is distinguishedby small and large mechanization.

Loading and unloading The most commonly used load-receiving devices are listed. They are flexible and come in several types and shapes.

The most commonly used load-bearing devices. a) for lifting sheet steel, b) cargo platforms, c) for timber

Highways in all places have their own administrative, political and cultural to national, inter-regional, inter-city and district roads, depending on their importance is divided. Roads of national ownership are highways serves capitals, large administrative centers, separate economic districts. Roads of republican importance - the capital of the republic is the region centers, cultural, economic, political centers and autonomous republic serves to connect. Regional roads - connect district centers, cultural and administrative centers, railway stations with regional centers.

District roads - district centers of village councils, collective farms, connects with railway stations. Urban roads are intended for residential areas, non-urban communication and traffic services. The above-mentioned highways are public roads. Besides: Resort roads serve vacationers in resort areas. Motorways belong to the national economy and administrative agencies the funds necessary for construction, repair and operation are determined and classified by the provided agencies.

Design of highways - capacity of passenger and cargo transportation, serves to ensure the safe movement of the content in motion. Roads are different in terms of natural and climatic conditions and importance in the national economy can have a technical quantity.

Motorways are in the public road network It is divided into five categories depending on the importance and the calculated speed. Movement is uncertain and at high speed, the daily speed increases by 1.5 times in an average month. Each technical standard for roads of the following categories: road width, the number of lanes in motion, steep ascent, slope, turning radius, etc. City streets are a type of roads that carry various types of transport and engineering networks, not intended for passing passengers intended for location, greening, beautification. City streets pass through residential areas of the city.

City roads serve a similar function to city streets, but pass through undeveloped areas. City streets and roads have the following classification: Classification of streets and roadsi Main functions of streets and roads Expressways A transport link between large cities or their districts or

connecting other settlements at different levels Main streets and roads: Continuous movement of city-wide significance.

In the territory of the district, the main streets of city-wide importance have a transport connection organized on the same level as other streets. To the movement of trucks Transportation of industrial and construction goods on the same level as other streets in industrial and utility-storage areas Streets and roads of local importance: Residential streets

**Conclusions:** Driving on the curved road is a common task that many drivers routinely performed, but there is an underlying impact on driver behavior and vehicle maneuverability. Previous studies have shown that driving performance (speed and acceleration) and visual performance (gaze and Useful Field of View (UFOV)), can be critical components of curve analysis. However, with the change of road conditions, there are increasing safety concerns for the driving environment required to determine vehicle safety maneuverability. In this study, we examined how different curved roads influence concurrent-driver driving behavior and vehicle maneuvering performance along a simulated continuously curved road.

Twenty-eight participants of different ages and occupations were invited to participate. A structural equation model was established to represent how the road geometry influences driving performance and vehicle maneuverability. The results showed that there are clear differences in driving behavior and vehicle maneuvering performance between the curved road groups. Driver will suffer a more complex driving environment, and must observe more objects, which will result in increasing lane position errors, gazing, and workload, while decreasing speed, acceleration and UFOV.

**References:**

1. Sohibjon o'gli, S. J. (2024). O 'ZBEKISTONDA INTELLEKTUAL TRANSPORT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH. *Лучшие интеллектуальные исследования*, *15*(4), 9-14.

2. Rafiqjon o'g'li, R. R., & Zakirovich, N. I. (2024). ELEKTROBUSLARNI JORIY ETISHDAGI ENERGIYANING TEJALISHI. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, *4*(39), 170-175.

3. Rafiqjon o'g'li, R. R. (2024). ANDIJON VILOYATI YO 'LOVCHI TASHUVCHI AVTOTRANSPORT KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO 'LLARI. *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research*, *2*(4), 20-24.

4. Shavkatjon o'g, T. U. S., & Rafiqjon o'g'li, R. R. (2024). SERQATNOV KOCHALARDA TRANSPORT VOSITALARINI HARAKATINI TARTIBGA SOLISH. *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research*, *2*(4), 10-19.

5. Raximov, R. R., & Dexqonov, I. S. (2024). YO 'LOVCHILAR OQIMI VA YO 'LOVCHILAR OQIMINI O 'RGANISH USULLARI. *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research*, *2*(4), 4-9.

6. Rafiqjon o'g'li, R. R., & Sohibjon o'gli, S. J. (2023). ANDIJON SHAHRIDA JAMOAT TRANSPORTI MUAMMOLARI. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, *10*(6), 153-157.

7. Sohibjon o'gli, S. J., & Rafuiqjon o'g'li, R. R. (2023). TRANSPORT LOGISTIKASI TIZIMINI TASHKIL ETISHNING IQTISODIY AHAMIYATI. *TADQIQOTLAR. UZ*, *25*(1), 79-83.

8. o'g'Li, R. R. R., & o'g'Li, S. J. S. (2023). *Logistika Tiziming Transport Toshqil Etuvchisi. Ta'Limdagi Zamonaviy Muammolar Va Ularning Ilmiy Yechlari, 7 (7), 27–33*.

9. Raximov, R. (2023). AVTOMOBILLARGA TEXNIK XIZMAT KO 'RSATUVCHI USTAXONASINI JORIY ERISH AFZALIKLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, *1*(1), 280-290.

10. Raximov, R., & Daminov, D. (2023). Transport Vositalari Detallari Resurslarini Kompyuterda Hisoblash. *Modern Educational System And Innovative Teaching Solutions*, *2*(2), 75-82.

# KONSEPT ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKNING ASOSIY ELEMENTI SIFATIDA

**Maxmudova Muniraxon Badriddin qizi**
**Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti**

**Annotatsiya:** Maqolada zamonaviy tilshunoslikda konseptning markaziy o‘rin tutishi va uning asosiy ilmiy yondashuvlar bilan bog‘liq jihatlari tahlil qilinadi. Konsept kognitiv, kulturologik, pragmatik va lingvistik elementlarni birlashtirib, tafakkur va til o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajaradi. Matn tahlili orqali konseptning ko‘p qatlamli ma’nolari, madaniy tasavvurlar va insonning dunyoqarashi bilan aloqasi o‘rganiladi.

**Kalit so‘zlar:** konsept, zamonaviy tilshunoslik, antroposentrik yondashuv, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, lingvopragmatika, kognitiv tilshunoslik, matn tahlili, madaniy tasavvurlar.

Аннотация: В статье анализируется центральная роль концепта в современной лингвистике и его связь с основными научными подходами. Концепт объединяет когнитивные, культурологические, прагматические и лингвистические элементы, выполняя функцию моста между мышлением и языком. Через анализ текста изучаются многослойные значения концепта, его связь с культурными представлениями и мировоззрением человека.

**Ключевые слова:** концепт, современная лингвистика, антропоцентрический подход, когнитивная лингвистика, лингвокультурология, лингвопрагматика, когнитивная лингвистика, анализ текста, культурные представления.

**Annotation:** The article analyzes the central role of the concept in modern linguistics and its connection with key scientific approaches. The concept integrates cognitive, cultural, pragmatic, and linguistic elements, acting as a bridge between thought and language. Through text analysis, the multilayered meanings of the concept, its relation to cultural perceptions, and human worldview are explored.

**Keywords:** concept, modern linguistics, anthropocentric approach, cognitive linguistics, cultural linguistics, pragmatic linguistics, text analysis, cultural perceptions.

Zamonaviy tilshunosligi turli ilmiy yondashuvlarni integratsiya qilish bosqichini boshdan kechirmoqda, bu yerda markaziy o‘rinni konsept kabi asosiy kategoriya egallaydi. Konsept kognitiv, madaniy, pragmatik va lingvistik jihatlarni birlashtirib, tafakkur bilan til o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajaradi. Antropotsentrik yondashuv sharoitida konsept antropolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya va lingvopragmatika kabi yo‘nalishlarni o‘rganish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. U tafakkur birligi sifatida qaralib, dunyo haqidagi individual va madaniy tasavvurlarni aks

ettiradi, bu esa uni tilning koʻp qirralilik fenomeni sifatida tahlil qilish uchun ajralmas vositaga aylantiradi.

Tilshunoslik tarixiga nazar tashlasak, oʻtgan asrning 70-yillarigacha boʻlgan davr empirik bosqich ekanligi (ya'ni, material toʻplanib, analiz qilingan davr) koʻzga tashlansa, 80-yillardan 2010-yillargacha boʻlgan davrda tilshunoslik nazariy bilish bosqichi (bu davrda barcha toʻplangan materiallar sintez qilindi va makro va mikro sistema sifatida umumlashtirish amalga oshirildi)ga oʻtdi. 2010-yillardan hozirgacha boʻlgan davr esa metanazariy bosqich hisoblanmoqda. Hozir mikro va makrosistemalar oʻziga xos munosabatdorlikdagi aloqalari asosida tadqiq qilinmoqda. Ayniqsa, koʻpparadigmalilik metodi asosida tilshunoslikdagi barcha yoʻnalishlarni bir uchga birlashtirish zaruriyati kuchayadi. Natijada barcha tilshunoslar e'tirof etayotgan antropolingvistika nomli yakka bir uch, makro sistema yuzaga keldi. Antropolingvistikaning makro sistema boʻlishiga bosh sabab – inson -olam –til modeli asosida tilni tadqiq etishdir. Chunki tilning barcha yoʻnalishlari tadqiqida bosh omil inson omilidir. Shuning uchun tilni inson omili, tafakkuri, ongi, yashash tarzi, urf-odati, millati, milliy qadriyatlari makonidan ayro holda tadqiq etib boʻlmasligi tushunib yetildi. Natijada antropotsentrik nazariya paydo boʻldi. Bu nazariya asosida antropolingvistika rivojlanmoqda. Shuning uchun tilshunoslik hozirgi kunda oʻrganilgan, tadqiq etilgan yoʻnalishlarni qayta tekshirish, qayta baholash tizimiga oʻtdi. Unikaliyalar, universaliyalar oʻzaro munosabatdorlikda oʻrganila boshlandi.

Hozirgi kunda aynan antropolingvistkaning yoʻnalaishlari deb e'tirof etilayotgan lingvokulturologiya va lingvopragmatika dolzarb masalalar bilan shugʻullanib, ayrim chalkashliklarga oydinlik kiritmoqda.

Shu nuqtayi nazardan oʻzbek tilshunosligining hozirgi kungi holati uchun muhim metodologik tamoyil poliparadigmatiklilikning mavjudligidir. Chunki tilga antropotsentrik yondashuv asosida pragmalingvistik, psixolingvistik, sotsiolingvistik, lingvokultrologik, lingvogermenevtik, lingvokognitiv paradigmalar yuzaga keldiki, bu tilshunoslikda turli talqinlarni oʻrtaga tashladi. Ayniqsa, matn bilan bogʻliq tadqiqotlarda yangi-yangi qarashlarning paydo boʻlishiga asos boʻldi.

Fanda matnni tushunish turlicha boʻlib, ularni semantik va lingvistik yondashuv asosida talqin etish matnning koʻp qirralarini ochilishida eng maqbul omil hisoblandi.

Semiotik jihatdan matn har qanday belgilar ketma-ketligidan tashkil topgan butunlik (ilmiy, badiiy, publitsistik, musiqiy, rassomchilik asarlari, me'morchilik obidalari, naqshlar, haykallar boʻlishi mumkin), lingvistikada esa verbal vositalar bilan ifodalangan butunlik hisoblanadi.

Shuning uchun matnni ham semiotik, ham lingvistik jihatdan tadqiq etishda inson omili markaziy oʻrinni egallaydi va oʻz-oʻzidan obyektiv qonuniyat sifatida pragmatik tadqiq etish zaruriyati paydo boʻladi.

Matn lingvistikasining shakllanishi va uning oʻziga xos qirralari tahlili 80-yillardan hozirgi kungacha davom etmoqda.

Xususan, badiiy matn tadqiqi hozirgi davr tilshunosligida lingvopoetik va lingvopragmatik tahlil qilish asosida olib borilmoqda. Badiiy matn tadqiqida uch asosiy elementga e'tibor berish zarur. Ular inson, olam, til. Inson murakkab tushuncha boʻlib, bu tushuncha ostida, ayniqsa, badiiy matnda badiiy matn yaratuvchi shoir yoki yozuvchi, badiiy matnni oʻqiyotgan oʻquvchi yoki tinglovchi tushuniladi.

Shoir yoki yozuvchi va oʻquvchi yoki tinglovchi oʻrtasidagi kommunikativ aloqani tiklovchi kanal badiiy matn yoki matndagi verbal yoki noverbal vositalardir.

Har qanday matn shoir yoki yozuvchi, soʻzlovchining umumiy bilish xazinasidagi bilimlari, pragmatik ongi, dunyoqarashi, millati, yashash tarzi, yashash muhiti, yoshi, jinsi, kasb-kori kabi qirralariga mos holda shakllanadi. Shuning uchun har qanday matnda shoir yoki yozuvchi, soʻzlovchining gʻoyalari talqin etiladi. Bu talqinni tushunish uchun oʻquvchida kognitiv tafakkur shakllangan boʻlishi kerak.

Matn yaratuvchi va oʻquvchi oʻrtasidagi botiniy munosabatdorlik yuzaga keladi. Botiniy munosabatdorlikning qaysi darajadagi jips aloqasi, bir-birini tushunishi aloqa kanali boʻlgan matn orqali amalga oshadi va bir-birini anglash esa pragmatik tafakkur orqali yuzaga chiqadi.

Insonlarning pragmatik tafakkuri bir xil emas. Shu sababli koʻpchilik badiiy matndagi ishoraviy ma'nolarni anglamay qolishi mumkin. Yoki zohiriy ma'noni tushunib, botiniy ma'noni tushunmasligi mumkin.

Badiiy matnda koʻp qavatli ma'nolar sil-silasi yashiringan boʻladi. Bunday botiniy ma'nolarni oʻrganuvchi tilshunoslikdagi yoʻnalish pragmatika yoki lingvopragmatika deb nomlanadi va kognitiv tadqiq yoʻlidan boradi.

Hozirgi kunda koʻplab ijodkorlar yaratgan badiiy matnlarni kognitiv tadqiq etish kuchaydi. Natijada ijodkorlarning ham badiiy, ham poetik, ham lingvistik qirralariga baho berilmoqda.

Zamonaviy tilshunoslikning markaziy tushunchalaridan biri esa konseptdir. Bilish jarayoni konseptuallashtirish bilan bogʻliq boʻlib, bu hodisani inson har doim ham anglamaydi, ya'ni ong osti predmet va harakatlarni insonni oʻrab turgan olamni tahlil qilish yordamida bir-biriga assotsiatsiya qiladi. Natijada olamning lisoniy manzarasi yuzaga keladi.

Konspet shu kunga qadar tilshunoslikning turli yoʻnalishlari markaziy atamalaridan boʻlib kelmoqda. Hozirgi kunga qadar konsept atamasi tilshunoslar tomonidan turlicha talqin qilingan boʻlib, toʻliq ta'rifga ega emas. Shunday boʻlsa-da, uni oʻz obyekti sifatida oʻrganuvchi kognitiv tilshunoslik fanlar orasida oʻz oʻrnini topdi. Konsept tafakkur birligi va uning asosida tushuncha, obraz va lisoniy ma'no umumlashmasi yotadi. Konseptning shakllanishi individual obraz tugʻilishidan boshlanib, lisoniy birlikning paydo boʻlishi bilan tugaydi. Taniqli faylasuf va psixolog Jerri Fyodor voqelikning ongda in'ikos etishi va bu in'ikosning tafakkurda "qayta ishlanish" jarayonini oʻrganayotib, bu jarayonni "tafakkur lisoni"ga oʻxshatadi. Chunki "har qanday mantiqiy tasavvur harakati ma'lum koʻrinishdagi strukturaga ega boʻladi

hamda bu struktura tabiiy til birligining sintaktik shakli takroriga ishoradir" [1, B. 110].

Konsept – mental tuzilma bo'lib, u turli tarkibdagi va ko'rinishdagi bilimlar kvanti yoki umumlashmasidir. Konseptlar inson ongida shakllanadigan turli kategoriyalarning asosini tashkil qiladi, ular uchun tayanch nuqta bo'lib xizmat qiladi. Odatda, konseptning umumiy xususiyatlari sifatida uning ichki tuzilish jihatidan aniq ko'rinishga ega emasligi qayd qilinadi, biroq bu qayd unchalik haqiqatga yaqin emas. Zero, konseptning asosini tashkil qiluvchi predmet obrazi yetarlicha aniq va ikkilamchi o'rinni egallagan bo'laklari mavhumlikka ega bo'lishi bilan birgalikda, ular yagona negiz (yadroviy asos) atrofida o'zaro munosabatga kirishib birikadilar. Shu sababli konsept tarkibining tizimiy xarakterga ega ekanligini e'tirof etish ma'quldir. Uning tizimiy xususiyatlari tuzilish jihatidan murakkab tartibli bo'lishadi va bir butun mental tuzilma sifatida idrok qilinishida namoyon bo'ladi.

Predmet-hodisalarning ongli idrok etilishi va ularning tasavvurda obraz hosil bo'lish yo'li bilan jamlanadigan bilim turlicha shakllanadi va har xil xarakterga ega bo'ladi. Bu bevosita turli guruhdagi va tuzilishdagi konseptlar shakllanishiga sabab bo'ladi. Konseptlarning guruhlanishida ularning lisoniy ifodalanish uslublariga tayaniladi. Tadqiqotchilar leksik va frazeologik konseptlar bilan bir qatorda, grammatik (aniqrog'i, sintaktik) konseptlar guruhlarini ham ajratishni taklif qilishmoqda.

Konseptni tahlil qilishda zamonaviy tilshunoslar uning barcha nozik qirralarini inobatga olmoqdalar. XX asr oxirlarida vujudga kelgan lingvomadaniyatshunoslik uchun ham konsept asosiy birlik tarzida qaraladi va bir xalq madaniyatining tilda aks etishi tadqiq qilinadi. "Konseptning har qanday ko'rinishi lingvomadaniyatshunoslik predmeti bo'la olmaydi, biz madaniyatning asosiy konseptlari sifatida madaniyat tomonidan belgilanadigan olam manzarasining yadro (asosiy) birliklarini ataymiz, ular alohida til shaxsi uchun ham, umuman lingvomadaniy hamjamiyat uchun ham ekzistensial ahamiyatga ega" [4, B. 39]. "Lingvomadaniy konsept tafakkurda mavjud bo'ladi, u o'zida kognitiv-ratsional va emotsional-psixologik mazmunni biriktiradi. Lingvomadaniy konsept barcha til egalari uchun dunyoqarash modeli vazifasini o'taydi. Lingvomadaniy konsept milliy xarakterning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi madaniyat vositasi hisoblanadi" [2. B. 45].

S.A. Askoldov-Alekseyev rus tilshunosligida ilk bor konsept terminini qo'llagan bo'lib, unga shunday izoh beradi: "fikrlash jarayonida noaniq ko'plab predmetlarni, harakatlarni, aqliy vazifalarni qamrab oluvchi tafakkur hosilasidir" [3, B. 269].

Y.S. Stepanov uchun esa "konsept – bu o'z ichiga abstrakt, aniq-assotsiativ va emotsional-baho, shuningdek, tushunchaning tarixan tayyorlangan belgilarini qamrab olgan g'oyo" [5, B. 40-43].

Har qanday holda ham egallangan bilimning shakllanishi va sistemalashtirilishining asosiy vositasi til tizimidir. Tafakkur birligi va mental hodisa sifatida yuzaga keladigan konseptning lisoniy voqelanishi ham nutqiy tafakkur faoliyati natijasidir.

Hozirgi zamon tilshunosligi, antroposentrik yondashuvga yo'nalib, tilni inson, uning madaniyati va tafakkuri bilan uzviy bog'liq fenomen sifatida o'rganishga qaratilgan. Antropolingvistika matnni tahlil qilish uchun yangi ufqlarni ochib, uning ko'p qatlamli ma'nolari va madaniyatga bog'liq konseptlarni aniqlashga yordam bermoqda. Bunday yondashuv tilni chuqurroq tushunishni ta'minlash bilan birga, tilshunoslikning turli yo'nalishlarini yaxlit tizimga birlashtiradi. Kognitiv tilshunoslik va konseptual tahlil sohasidagi kelajakdagi tadqiqotlar til, madaniyat va insonning dunyoni idrok etish o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlovchi yangi kashfiyotlarni va'da qiladi.

Adabiyotlar:

1. Fodor J. The Language of Thought. – Sussex, 1975. – P. 110.

2. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. – Toshkent, 2019. – B. 45.

3. Аскольдов С.А. Концепт и слово // Русская словесность: От теории словесности к структуре текста: антол. / Под ред. В.П. Нерознака. M.: Academia, 1997. – С. 269.

4. Маслова В.А. Лингвокультурология. Учеб. пособие для студ. высш. учеб, заведений. – М.: Академия, 2001. – С. 39.

5. Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. Опыт исследования. – М., 1997. – С. 40-43.

# Nutqiy janrlar tadqiqiga oid ayrim mulohazalar

Ismoilova Odinaxon A’zamjon qizi

ADU tayanch doktoranti

***Annotatsiya:*** Ushbu maqolada nutqiy janrlar nazariyasining vujudga kelishi va tadqiqiga oid ayrim mulohazalar bayon etilgan.

***Kalit so‘zlar:*** nutq janrlari, nutqiy voqelik, invariant va variantli modellar, janrshunoslik.

Til inson faoliyatining turli sohalari ishtirokchilari tomonidan individual aniq so'zlar (og'zaki va yozma) shaklida amalga oshiriladi. Bu jarayon ana shunday har bir sohaning o‘ziga xos shart-sharoitlari va maqsadini nafaqat o‘zining tematik mazmuni va lingvistik uslubi orqali, ya’ni tilning leksik, frazeologik va grammatik resurslarini tanlash orqali aks ettiradi. Umuman olganda, har bir alohida gap individualdir, lekin tilda ishlatiladigan har bir soha bu gaplarning nisbatan barqaror turlarini ishlab chiqadi. Mazkur turlar tilshunoslik ilmida nutq janrlari deb ataladi.

Rus tilshunosligida nutqiy janrlar nazariyasining vujudga kelishi,birinchi navbatda, Mixail Mixaylovich Baxtinning ilmiy merosi bilan bog'liq bo'lib, uning nomi hozirda rus neolingvistikasining o'ziga xos bayrog‘iga aylanib bormoqda. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori S.Nurmanovaning ta’kidlashicha, janr muammolarini o‘rganishning, shu bilan birga, hozirgi janrshunoslik va genristikaning asosi taniqli madaniyatshunos, filolog olim M.M.Baxtinning 1979 yilda e’lon qilingan va bugungi tilshunoslikda ilmiy jamoatchilik tomonidan mumtoz akademik adabiyot sifatida e’tirof etilib ulgurgan “Problema rechevix janrov” (Nutqiy janrlar muammosi)[1] asari hisoblanadi[2].

Rus tilshunosligining yana bir vakili T.V. Shmelevaning ham nutqiy janrlar nazariyasi bo‘yicha ko'plab xizmatlari bor. T. V. Shmelevani so'ziga xos mehnati shundaki, u birinchilardan bo'lib Baxtin asarlariga va birinchi navbatda uning nutq janrlari haqidagi hozirda mashhur tugallanmagan maqolasiga murojaat qildi [Baxtin 1996]. Ushbu maqolada olingan fikrning energiyasi shunchalik ijodiy bo'lib chiqdiki, u tilshunoslik ilmida ko'pincha janrshunoslik deb ataladigan butun ilmiy yo'nalishni tug'dira oldi (batafsilroq: [Nutq janrlari antologiyasi. 2007; Nutq janrlari 1-5, 1997- 2007]).[3]

---

[1] Бахтин М.М. Проблема речевых жанров. // *Бахтин М.М. Собр. соч. – Москва: Русские словари, 1996. – Т.5: Работы 1940-1960 гг. – С.159-206.*

2 Нурманова С.Д. Ўзбек тилидаги қасам нутқий жанрининг лингвомаданий тадқиқи. Филол. фан. бўйича ф. док-ри (Phd) диссертацияси автореферати. –Андижон, 2022. – 12 б.

[3] К.Ф. Седов ЯЗЫКОЗНАНИЕ. РЕЧЕВЕДЕНИЕ. ГЕНРИСТИКА.Опубликовано в сб.: Жанры речи. Саратов: «Наука», 2009. Вып. 6. Жанр и язык.стр-215

Ma’lumki, nutqiy janrlar nazariyasi tilshunoslikning nisbatan yangi sohasidir. U 20-asrning o'rtalardagi sovet tilshunosligining yorqin vakillari tomonidan ishlab chiqilgan. Asosiy yo'nalishlari quyidagilar edi:

**1. M.M. Baxținning nutqiy voqelik haqidagi kontseptsiyasi**

Baxțin nutqiy voqelikka ijtimoiy munosabatlarning tashqi ifodasini ko'rardi. U nutqiy janrlarni "nutq faoliyatining tipik shakllari" deb ta'rifladi va ular ijtimoiy vaziyat, nutq maqsadi va qatnashchilarning o'zaro aloqasi bilan belgilanadi deb hisobladi.

**2. V.V. Vinogradovning nutqiy janrlar tipologiyasi**

Vinogradov nutqiy janrlarni uch asosiy guruhga bo'ldi: nutqiy - maishiy, rassomona - adabiy va ilmiy - biznes. U har bir guruhning o'ziga xos xususiyatlarini, jumladan, belgi, tarkibiy xususiyatlar, leksik-grammatik vositalarni ajratdi.

**3. G.O. Vinokurning nutqiy janrlarning xronotopi haqidagi nazariyasi**

Vinokur nutqiy janrlarni "xronotop", ya'ni hayotning vaqti va joyi bilan bog'langan dinamik birliklar sifatida ko'rardi. U nutqiy janrlarning hayotning turli sohalarida paydo bo'lishi va rivojlanishini o'rgandi.

**4. I.R. Galperinning nutqiy janrlarning qo'llanish sharoiti haqidagi tadqiqoti**

Galperin nutqiy janrlarni nutq faoliyati bilan bog'ladi va ularning qo'llanish sharoitlarini, ya'ni nutq vaziyatini, nutq maqsadi va qatnashchilarning aloqa sifatini o'rgandi.

Sovet tilshunosligida ishlab chiqilgan nutqiy janrlar nazariyasi rus tilining funksional turi sifatida nutqiy janrlarni o'rganish uchun metodologik asos yaratdi. Keyinchalik u ko'plab tillarda nutqiy janrlarni o'rganishda qo'llanildi.

Nutq janrlari – dialogik hodisalar – invariant - variantli modellar sifatida tushuniladi va tizimning paradigmatik va sintagmatik munosabatlari prizmasidan tahlil qilinadi. Nutq janri – bu "nutq butunligini qurishning tipik modeli" (M.M.Baxtin). Nutqiy janrlar tematik mazmun, uslub va kompozitsion jihatidan o'ta xilma-xilligiga xoh yozma, xoh yozma bo‘lishidan qat’iy nazar alohida e'tibor berilishi zarur. Nutqiy janrlarga suhbat, hikoya, miting, qadah so‘zlari, qasamyod, latifa, ertak, maqol, matal, flirt, dilnoma, dastxat, duo, qasamyod, tavba, vasiyat, askiya, qarg‘ish (duoyibad), so‘kish, so‘kinish, maqtov, faryod, irim, murojaat, vasiyat, maqol, naql, matal, faxriy yorliq, ta’ziya, mish-mish, flirt, dastxat, qutlov (tabrik), tilanish (ziyoratgohlarda, ko‘chalarda), afsun (sehr-jodu), kelin tushdi, qa’da (ta’ziyada), yuz ochdi, bag‘ishlov va hokazolar misol bo‘ladi. Biz yuqoridagi nutqiy janrlarning jahon tilshunosligidagi tadqiqi yuzasidan ayrim fikr-mulohazalarimizni bayon etmoqchimiz.Tadqiqot asosan nutqiy janrlar haqidagina emas, balki aynan mazkur janrlarning lisoniy tadqiqi bo'yicha o'tkazilishi ham tasodif emas.

Janr tushunchasi XX asrning ikkinchi yarmigacha folklor, amaliy san’at,adabiy turlar kabilarni ifoda etgan bo’lsa, XX asrning 50-yillaridan boshlab tilshunoslik sohasiga oid nutqiy janrlarni ifodalay boshladi. Bu esa

nutqiy janrlar, ularning turlari, o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga ilmiy ehtiyoj borligini ko'rsatadi.Natijada nutqiy janrlarni lingvistik aspektda o'rganish, xususan, "nutqiy janr" istilohining ma'nosini idrok etish, lingvomadaniy jihatdan tahlil qilish dolzarb masalaga aylanadi. Shu kunga qadar nutqiy janrlar masalasi rus tilshunosligida D.A.Dementev, A.V.Sidorenko, O.Abramenko, A.V.Karabikovlar tomonidan; o'zbek tilshunosligida esa S.Nurmonova, F.Xasanova, M.Bazarovalar tomonidan tadqiq qilindi. M.Bazarovaning "O'zbek tilidagi ijobiy istak mazmunini ifodalovchi nutqiy birliklarning lisoniy xususiyatlari" nomli dissertatsiyasida o'zbek tilidagi ijobiy istak mazmunini ifodalovchi nutqiy birliklarning shakllanishida ijtimoiy omillarning roli, so'z ma'nolarining o'zgarishi, frazema va metaforik mazmunli gaplarning o'rni, jinslararo va yoshga ko'ra farqli qo'llanishikabi leksik va semantik xususiyatlari, buyruq-istak mayli fe'llarining qo'llanilishi, juft va takroriy so'zlarning qo'llanilishi, otlashish hodisasi kabi morfologik; sodda gap, qo'shma gap, undov gap, gap bo'laklarining semantik-sintaktik pozitsiyasi kabi sintaktik xususiyatlari tadqiq qilingan. S.Nurmonova o'zining "O'zbek tilidagi qasam nutqiy janrining lingvomadaniy tadqiqi" nomli dissertatsion ishida o'zbek lingvomadaniy muhitidagi xalqona qasamlarning milliy-madaniy, mental xususiyatlari o'rganilgan. F.Xasanovaning "Ingliz va o'zbek tillarida qasamyod nutqiy janrining chog'ishtirma tadqiqi" nomli tadqiqot ishida ingliz va o'zbek tillaridagi qasamyodlarning janr shakllari, mavzu guruhlari, milliy xususiyatlari ikki til misolida qiyosiy tadqiq qilingan. Shu bilan bir qatorda nutqiy janrlarni lingvistik aspektda o'rganish, xususan, mazkur nutqiy janrlarni idrok etish, lisoniy jihatdan tahlil qilish dolzarb masalaga aylanadi. Hozirgacha nutqiy janrlaning yuqoridagi tarmoqlari o'rganilgan bo'lsada, o'zbek tilshunosligida nutqiy janrlarning lingvistik jihatlariga oid yana bir qancha monografik tadqiqotlar mavjud. To'lxun Yo'ldoshev "O'zbek tilida nutqiy janrlarning leksik-semantik tizimi" deb nomlangan dissertatsiyasida shular jumlasidandir. Olim nutqiy janrlar nazariyasini o'zbek tiliga moslashtirish va o'zbek tilidagi nutqiy janrlarni tasniflash ustida ishlagan. O'zbek tilshunosligi va funksional stilistika sohasidagi olim Rahmatilla Hojiyev esa "Nutqiy janrlarning funksional-kommunikativ xususiyatlari" ni o'rgangan. Ma'suma Hojiyevaning nutqiy janrlarga oid "Nutqiy janrlar va ularni o'rgatish metodikasi" nomli dissertatsiyasi o'zbek tilining funksional uslubiyati doirasida nutqiy janrlarni nazariy jihatdan o'rganishga bag'ishlangan. Dissertant nutqiy janr tushunchasini aniqlab, uning nutqiy faoliyatdagi rolini, tarkibiy qismlarini, turlarini va ularni o'rgatish metodikasi masalalarini yoritadi. Bu esa mazkur tadqiqot ishlarining dolzarbligini belgilaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, nutqiy janrlar, ijtimoiy muloqot va aloqani osonlashtiradigan ma'lum maqsadlar va tuzilishga ega gapirish shakllaridir. Zamonaviy dunyoda nutqiy janrlar, turli xil muhitlarda muhim ahamiyatga ega bo'lishda davom etmoqda. Nutqiy janrlar bugungi kundagi ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy muloqotning ajralmas qismidir. Axborotni

yetkazishdan, ishlarni bajarishdan tortib ta'sir qilishga va ijtimoiy bog'lanishlarni mustahkamlashgacha, turli xil muhitlarda muhim rol o'ynaydi. Texnologik rivojlanishlar bilan nutqiy janrlar yangi o'lchamlarga erishib, aloqani yanada samarali va ta'sirli qilmoqda. Nutq janrlari nutqning inson muloqotidagi asosiy rolini tushunishimiz uchun juda muhimdir. Nutqiy janrlarni tarkibiy, lingvistik va kontekstual jihatlarini tadqiq qilish bizga muloqot qobiliyatimizni yaxshilashga, madaniyatimizni chuqurroq tushunishga va nutq va uning janrlaridan hayotimizda ijobiy kuch sifatida foydalanishga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Бахтин М.М. Проблема речевых жанров. *// Бахтин М.М. Собр. соч. – Москва: Русские словари, 1996. – Т.5: Работы 1940-1960 гг. – С.159-206.*

2. К.Ф. Седов ЯЗЫКОЗНАНИЕ. РЕЧЕВЕДЕНИЕ. ГЕНРИСТИКА.Опубликовано в сб.: Жанры речи. Саратов: «Наука», 2009. Вып. 6. Жанр и язык.стр-215.

3. Нурманова С.Д. Ўзбек тилидаги қасам нутқий жанрининг лингвомаданий тадқиқи. Филол. фан. бўйича ф. док-ри (Phd) диссертацияси автореферати. –Андижон, 2022. – 12 б.

# 70-80-YILLAR SHE'RIYATIDA SAN'ATNING MOHIYATI, VAZIFALARI HAQIDAGI SHE'RLAR KO'LAMINING ORTIB BORISHI VA SABABLARI

**Maxmudov Sardorbek**
**Andijon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** 70–80-yillardagi o'zbek she'riyatida san'atning mohiyati va vazifalariga bag'ishlangan she'rlar keng tarqalgan. Ushbu davr ijodkorlari ijtimoiy va falsafiy mavzularni yangi qirralarda yoritib, she'riyatga yangi yo'nalishlar kiritdilar. Ayniqsa, Rauf Parfi, Usmon Azim, Shavkat Rahmon va Xurshid Davron kabi shoirlar ijodida san'atning inson qalbi va jamiyatdagi o'rni va ahamiyati falsafiy qarashlar bilan tadqiq etilgan. Maqolada shoirlarning she'rlarida ilhom, fidokorlik va ijodiy erkinlik tushunchalari tahlil qilingan. San'atning asosiy vazifasi inson qalbini yangilash, uni ruhiy va ma'naviy yuksalishga yetaklashdan iborat ekanligi ta'kidlangan. Maqola mazkur davr she'riyatining eng muhim jihatlarini ochib berishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** 70–80-yillar she'riyati, san'at mohiyati, ijodiy erkinlik, falsafiy she'riyat, Rauf Parfi, Usmon Azim, Shavkat Rahmon, san'at vazifalari, inson qalbi, ilhom.

**Аннотация:** В узбекской поэзии 70–80-х годов широко освещалась тема сущности и задач искусства. Поэты этого периода по-новому осмыслили социальные и философские вопросы, привнеся в поэзию новые направления. Особенно выделяются работы таких поэтов, как Рауф Парфи, Усмон Азим, Шавкат Рахмон и Хуршид Даврон, в которых исследуется роль и значение искусства в жизни человека и общества через философские взгляды. В статье анализируются понятия вдохновения, самопожертвования и творческой свободы в их произведениях. Отмечается, что главная задача искусства — обновление человеческого сердца, его духовное и моральное возвышение. Статья направлена на раскрытие ключевых аспектов поэзии данного периода.

**Ключевые слова:** Поэзия 70–80-х годов, сущность искусства, творческая свобода, философская поэзия, Рауф Парфи, Усмон Азим, Шавкат Рахмон, задачи искусства, сердце человека, вдохновение.

**Abstract:** The Uzbek poetry of the 1970s and 1980s extensively explored the essence and functions of art. Poets of this period reinterpreted social and philosophical themes, introducing new directions into poetry. The works of poets such as Rauf Parfi, Usmon Azim, Shavkat Rahmon, and Khurshid Davron stand out, delving into the role and significance of art in human life and society through philosophical perspectives. This article analyzes concepts like inspiration, dedication, and creative freedom in their works. It

emphasizes that the primary purpose of art is to renew the human soul and guide it towards spiritual and moral growth. The article aims to reveal the key aspects of the poetry of this era.

**Keywords:** Poetry of the 1970s–1980s, essence of art, creative freedom, philosophical poetry, Rauf Parfi, Usmon Azim, Shavkat Rahmon, functions of art, human soul, inspiration.

70-80-yillar she'riyatida san'atning mohiyati, vazifalari haqida yozilgan she'rlarning ham koʻlami ancha kengaydi. Ushbu davrdagi ijodkorlarning she'riyatdagi tutgan yoʻllari, aytgan soʻzlari oʻzidan oldingi salaflaridan oʻzga edi. Noʻmon Rahimjonov Rauf Parfi ijodi haqida "shoir asarlarining ijtimoiy falsafiy magʻzi she'riyatimizda yangi yoʻnalish edi"[4] degan ilmiy tezisni olgʻa suradi. Jumladan bu davr ijodkorlari orasida X. Davron, Sh. Rahmon, U. Azim lirikasida ham shunday oʻzgachalikni yaqqol kuzatamiz. U. Hamdam "Yangi insonning qalb tebranishlarini aks ettirish talabi she'riyatdan shunga mos oʻzgarishlarni taqozo etgan"ini[1] aytadi. Har jabhada oʻz rivojini topgan san'at sohalari orasida she'riyat ham oʻz imkoniyatlarini, ifoda shakllarini, mavzu koʻlamini anchagina kengaytirdi. San'at mavzusi orasida san'at mohiyati va vazifalari haqidagi she'rlarning ham koʻlami anchagina kengaydi. Rauf Parfi "She'riyat" nomli she'rida shunday yozadi:

Dilu jon oʻrtanar, dil orom izlar,
Ilhomning pichogʻi sanchilar butkul.
Lovullab yonmoqda oylar, yulduzlar,
Orzumning quyoshi boʻlmoqdadir kul.

Birinchi misrada lirik subyektning oʻrtanayotgani va bunga orom izlayotganini koʻramiz. Bir qarashda oddiy narsadek tuyiladi. Ammo ruhan oʻrtanishlar quchogʻida buyuk she'rlar tugʻiladi va bu fikrimizni ikkinchi misra bilan dalillab oʻtsak. Ilhom pichogʻini bagʻriga butkul sanchgan ijodkor koʻz oʻngida oy va yulduzlar, butun koinot uning hukmida boʻladi va ular ham shoir kabi yonadi. Bu yongʻin qa'ridan olovli she'r tugʻiladi. Usmon Azimda buning ta'rifi oʻzgacha, toʻlqinlar toʻfonga aylanib, kemani u yoqdan bu yoqqa chaypaganidek kitobxon koʻnglini ham toʻfonlar domiga tashlaydi:

Tong titraydi kech kuzakning quchogʻida,
Yulduzlarni oʻchirmoqda gulgun shafaq.
Jonim, qalbim she'riyatning pichogʻida...
Zamin – tilsim, osmon– tilsim... she'r– beshafqat!

U. Azim she'riyatida oʻktamlik va tetik ruh mavjud. Shoirning joʻshqin ehtiroslarga yoʻgʻrilgan ushbu she'ri. Zamin – tilsim, osmon – tilsim... she'r beshafqat – satrlari bilan boshlanuvchi tamomila oʻziga xos bir shiddatda yozilgan she'r uni, shubhasiz, dolgʻali shoir sifatida e'tirof

[4] Hamdam U. Yangi oʻzbek she'riyati. – T.: Adib, 2012. – B. 9.

toptirdi. Oʻsha sheʼrdagi: "Qiynoq, senga boʻlsin sharaf!" satri va eng soʻnggi: "Bu dunyoni sirga koʻmib yashash kerak, Qalbga sanchib sheʼriyatning pichogʻini!" misralari uning hayot aʼmoli, sheʼriyatning bosh mayogʻidek tasavvurni barqaror qiladi. Haqiqatan ham, kech kuzak – koʻhna adabiyotimiz, sheʼriyatimiz bagʻrida otayotgan tong misoli oʻng-u soʻlga alanglab yangi, navqiron sheʼriy nafas paydo boʻlayotgan edi. Tabiatda koʻringanidek charogʻon yulduz, yaʼni, sheʼr ustozlari fonuslaridan yorugʻroq, ularni oʻchirmoqqa, oʻzinikini tasdiq etmoqqa qodir sarkash ruh yal-yal yonib paydo boʻlayotgan shafaq kabi qizgʻin, otash nafasi ila kirib kelayotgan edi. Uning shiori qiynoq, yaʼni, oʻzini izlash, "qalbga pichoq sanchib"– uni beayov titib, oʻzlikni ifoda etmoq, muttasil hayratlar uygʻotib, dunyoni sir-u sinoatga koʻmib yashamoq edi. Shundan boʻlsa kerak, nazarimda uning sheʼrlaridan doim yoshlik ufurib turadi. Shavkat Rahmonning "Sanʼat" nomli sheʼrida esa butkul oʻzgachalikni koʻramiz:

Sodiq qoldim tabiatimga,
yashamadim yuz xil turlanib –
koʻrgan edim bir paytlari
himoyasiz atirgullarni.
Garchi gullar koʻrkini toʻkib,
qovjiratib, toʻzgʻitsa-da, kuz
atirgullar ichiga oʻtkir
pichoqlarni joylayman hanuz.

Sheʼrning ilk misrasini oʻqib kitobxonda shoir nega taʼkidlab aytmoqda tabiatiga sodiq qolganligini, degan savol tugʻiladi nazarimizda. Sababi ushbu davrda ham mustamlakachilik koʻlankasi hanuz boshimizdan koʻtarilmagan edi. Buyurtma sheʼrlar, tazyiqlar, umuman, adabiyotni siyosat qolipiga solish va undan chiqarmaslikka harakat qilishlar davom etib kelayotgan palla edi. Ammo chin shoir siyosat qolipiga tushmaydi, chirkin va yolgʻon siyosat uchun boʻyin egmaydi. Uning ichidagi erk ijod namunalarida oʻz ifodasini topadi va bu erkni atrofiga ham taratadi. Shavkat Rahmon ruhiyatida ham chin erkni sogʻinish hissi tinchlik bermasdi va bu hislarini sheʼrlaridagi misralarga jo qiladi. Shoir oʻz eʼtiqodi bilan yashaydi va bu eʼtiqodidan "siyosiy majburiyat" sabab voz kechmaydi. Sheʼrlarida qalamga olayotgan sanʼat mohiyati haqida gap ketsa, uning oʻz pozitsiyasi aniq va shu qatori biz obyekt qilib olgan shoirlarning ham shunday oʻz oʻrinlari mavjud. Shu sababli ham sheʼrlarida oʻz badiiy-falsafiy qarashlarini baralla ayta olganlar. Sh.Rahmonning sheʼrini tahlil qilayotganda bir paytlari himoyasiz atirgullarni koʻrganligini va ularning koʻrkini kuz qovjiratib xazon kabi toʻzgʻitsa-da, shoir ularning ichiga oʻtkir pichogʻini joylab qoʻyayotganini aytadi. Albatta bu yerda ramziylik bor. Ramziylik shundaki, kuz bu qulash arafasiga kelib qolgan chirkin siyosat ramzi. U xazon kabi toʻkayotgan yaproqlar 70-yillargacha boʻlgan sheʼriyati edi,

nazarimizda. Ammo shoir bu kuzak har bir yaproqning ildizlarini quritib qo'yishiga yo'l qo'ymaydi. U o'z ijodi bilan mafkura qurboni bo'lgan she'riyatimizni yana o'z o'rniga qaytishiga salmoqli hissa qo'shgan shoirlardan biridir. Aynan san'atning mohiyati ham shu emasmi. Asl mohiyat qolib yolg'on mafkuralarga yo'rg'alagan adabiyotning tomirlarini hasharotlar allaqachonlar kemirib bo'lgan edi. Buni anglagan shoir bu siyosat, bu mafkuraning o'rnini kuzdan topadi. Ular yo'naltirayotgan yo'riqlariga ortiq yurmasliklarini va bunga qarshi o'z xanjarlari, ya'ni, she'rlari bilan kurashishini aytadi. Uning "She'riyat" nomli she'ri esa yuqorida keltirgan she'rimizning mantiqiy davomidek go'yo:

She'riyat biz seni aldadik,
ko'pincha avradik, xo'rladik.
Vaslingga yetishdik nihoyat,
qizargan ko'zlaring ko'rmadik.
She'riyat,
xalajruh parizod,
uchdingmi, ko'ndingmi yolg'onga:
uchdingmi kichkina dunyoga,
ko'ndingmi kundalik yovg'onga.
Sen – hirslar,
tamalar qurboni,
o'zingni har kimga to'shaysan,
parimas,
anjirday ezilgan
bir sho'rlik ayolga o'xshaysan...

Yuqorida keltirgan fikrlarimizning davomi o'laroq she'riyatning umuman adabiyotning qanchalar bo'g'iqli va siquvli davrlarda qolganligini va shoir xuddi insonga murojaat qilgandek she'riyatga murojaat qilayotganini ko'ramiz. Shoir she'rning birinchi misrasini iqrori bilan boshlaydi. Bu iqror shunday iqrorki, o'zidan oldingi salaflarining ich-etini yemirib kelgan og'riqli dardlarning iqrori edi. She'riyatni xalajruh parizoda qiyofasida ko'radi ijodkor. Chunki erkinlik bo'lmasa, harakatlar siquvlardan iborat bo'lsa, shoir o'z izlagan haqiqatini unutadi-da, boshqa so'qmoqlarga mahkum etiladi. Bu so'qmoqlar ularni yo'llaridan, maqsadlaridan adashtirishi mumkin. Shu sababdan ham she'riyatni anjirday ezilgan bir sho'rlik ayolga o'xshatadi. Hammasining boshida qamchi o'ynatayotgan siyosat esa buni o'zi uchun qurol qiladi. Xalqning, millatning ko'zlarini go'zal aldov bilan boylaydi. Shu narsalarni teran his qilgan Sh. Rahmon she'rining davomida shunday yozadi:

Entikib so'ylaysan shamolga:
orzular chechagi so'ldi, deb,
burdi yo'q kimsalar qo'lida

bag'ri qon,
bag'ri qon bo'ldi, deb.[5]

Shoir ichida uzoq saqlanib kelgan dardlarini tushiradi qog'ozga va bu bejiz emas. Axir qanchadan-qancha ijodkorlarning muhabbat haqida yozgan she'rlari uchun ham bo'yningga davlat xoini degan jazo bilan surgunlarga jo'natilishmaganmidi? Shoirning aybi o'z hislarini, muhabbatini qog'ozga tushirganidami? Ushbu misralarni o'qiyapman-u Shukrulloning "Kafansiz ko'milganlar" romani xayolimda charx urib aylanyapti. Shukrullo ham shoir aytgandek burdi yo'q kimsalar qo'lida xor-u zorlikka yuz tutmaganmidi. Sh.Rahmon shu dardlarni teran his qiladi. She'riyatning qanchalar oyoq osti bo'lganligi she'riyatninggina emas shoirning-da bag'rini qon qiladi. Shoir so'nggi misralarda she'riyatning ko'zlariga qarash og'irligini aytadi; o'zi har kecha-kunduz birga bo'lgan, bor o'y-kechinmalarini u bilan bo'lishgani holda uning ko'zlariga boqishdan chuqur dard his qiladi va she'riyat va zo'rlangan go'zallik so'zlarini ma'nodosh (sinonim) qo'llaydi. Bu mustabid tuzumning chuqur yarasi edi.

Rauf Parfi, Usmon Azim she'rlarida she'r tug'ilishi, ilhom onlaridagi hislarning betakror shakllarini ko'rsak, X. Davron, Sh. Rahmon she'rlarida bir oz tushkun kayfiyatni his qilamiz. Ammo bu mavzuda har bir shoir o'z qalbidagi hissiyotlaridan kelib chiqib she'r bitadi va shunga ko'ra anglanayotgan mohiyat ham bir-biridan farq qiladi. Ammo barchasida ko'ngilning tub-tubida yashayotgan asliyat tomon borishga, haqni topishga, botildan haqni ajratishga bo'lgan hislar, san'atkorning ijod onidagi kechinmalar quchog'idagi holatlari bir-biriga juda ham o'xshash. Yuqoridagi she'rlarni tahlil qilish jarayonida san'atning mohiyati shu kungacha she'riyat qay chig'iriqlardan o'tganligi-yu, ijodkor qalbida qanday tuyg'ularni jonlantirganligining guvohi bo'ldik. Demak san'atning mohiyatidan shoirlar faqatgina haqni va o'zlikni topish emas, balki u bosib kelgan yo'l, siquvlar, shaklning mazmunga bo'ysundirilishi kabi masalalarning-da mohiyatiga yetishga urinadilar va anglaganimiz bu mavzuning ommalashuvida san'atkor san'atning mohiyatini anglash orqali o'zligini anglaydi. O'zligini anglaganda esa yuqoridagidek san'at mohiyatining turli jabhalarida erkin qalam tebratadi.

Usmon Azim she'rlarini kuzatar ekanmiz san'atning qay darajada bashariyat hayotida muhim ahamiyat kasb etishini anglagandek bo'lamiz. San'atning mohiyati tomon borishga harakat qildig-u, uning bajarayotgan vazifasini unutdik. Bu vazifaning nima ekanligini U. Azim she'rlarida tahlil qilsak. U. Azim she'riyatidagi keng mavzulardan biri san'at sohalari haqida yozilgan she'rlar va u yerda o'sha san'at sohasi nima vazifa bajarayotganini anglaysan kishi.

---

[5] Shavkat Rahmon. Abadiyat oralab. – T.: Movarounnahr, 2012. – B. 79

Bu yerda o'zlari uchun yig'lamas.
Bu yerda yig'latar birovning dardi.
Bu yerda birovning dardi muqaddas,
Bu yerda tabarruk o'zganing qadri.[6]

Ushbu "Teatr" nomli she'rining birinchi bandiyoq odamni ajablantiradi. Insonga begonalashib borayotgan tuyg'ularni yodimizga solgandek bo'ladi. Begona uchun yig'lash, begonaning g'amidan chuqur qayg'uga tushish, o'zga insonni qadrlash degan mudroq bosgan muqaddas tuyg'ularimizni qayta uyg'otadi go'yo. U. Azim u yerda dunyo o'z bo'yini o'lchashini va orqaga qaytdimmi yo ketdim olg'a? degan savollarga javob topadi, degan qarashini singdiradi va dunyo o'tkinchiligini chuqur his qilgan holda teatrdan – san'atdan taskin topishga urinadi ijodkor:

Yolg'onchi dunyoning yolg'onlaridan,
Tanim muzlaganda tugaru sabrim,
Teatr, yo haq, deb senga kelurman –
Meni yondiraqol birovning dardi!

Anglaganimiz shu bo'ldiki, inson san'atdan uzoqlashgan sari diydasi qotadi va o'zini yolg'iz his qila boshlaganda san'atga yaqinlasha boshlaydi, o'zligiga, asliga qaytishni istaydi va o'zganing dardidan qalbi larzaga keladi. Bu esa san'atning vazifasi. Inson qalbi qayta yaraladi, poklanadi. San'atning asl vazifasi ham shunda; inson qalbini qayta yarata olgan san'at haqiqiy san'atdir. Uning jozibasi inson qalbiga ham ko'chadi. Demak san'at o'z vazifasini bajargan bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Hamdam U. Yangi o'zbek she'riyati. – T.: Adib, 2012.
2. Shavkat Rahmon. Abadiyat oralab. – T.: Movarounnahr, 2012.
3. Usmon Azim. Tanlangan asarlar. I jild. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016.

[6] Usmon Azim. Tanlangan asarlar. I jild. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. – B. 183.

..

## MUNDARIJA | TABLE OF CONTENTS | СОДЕРЖАНИЕ


| | | |
|---|---|---|
| 1. | ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA LINGVOPOETIKA TADQIQI<br>Tojiboyeva Muhayyo Elmurod qizi | 4 |
| 2. | PEDAGOGIK TA'LIM SIFATINI BOSHQARISH VA RAQOBATBARDOSHLIGINI TAKOMILLASHTIRISHA KLASTER YONDASHUVI<br>Mamashokirov Muhammadshukur Abdumuxtorovich | 8 |
| 3. | ОБОСНОВАНИЕ ПЛАНИРОВАНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СПОРТИВНОЙ ИГРЫ БАДМИНТОН В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ ПО ФИЗИЧЕСКОМУ ВОСПИТАНИЮ СТУДЕНТОК<br>Хамраева З.Б. | 16 |
| 4. | SHAHAR JAMOAT TRANSPORTI YO'NALISHLARIDA YO'LOVCHILARNI HARAKATLANISH VAQTINI MODELLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI<br>Xomidov Anvarbek Ahmadjon o'g'li | 20 |
| 5. | RESPUBLIKAMIZDA TRANSPORT OQIMINI TASHKIL ETISHDA INTELLEKTUAL TRANSPORT TIZIMLARINING QO'LLANILISHI<br>Nazirov Nodirbek Jamoliddin o'g'li<br>Yusupov Sarvarbek Sodiqovich | 25 |
| 6. | ELEKTROMOBILLARNING ELEKTRON BOSHQARUV TIZIMI<br>Esonboyev Behzodbek Murodjon o'g'li | 31 |
| 7. | CLIL METODIKASI ORQALI TALABALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALAR<br>Tursunova Kamola Ulug'bek qizi | 35 |
| 8. | АНАМНЕСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЖЕНЩИН С ПРЕЖДЕВРЕМЕННОЙ ИЛИ РАННЕЙ МЕНОПАУЗОЙ<br>Саломова Шахинабону Олим кизи[1]<br>Туксанова Дилбар Исматовна[2] | 38 |
| 9. | ТАКОМИЛЛАШТИРИЛГАН АВТОМОБИЛЬ СЎНДИРГИЧЛАРИНИНГ СИНОВЛАРИ<br>Насиров Илҳам Закирович<br>Қўзиболаева Дилноза Тўхтасиновна | 41 |
| 10. | O'ZBEK ADABIYOTIDA DETEKTIV JANRI TARAQQIYOTI<br>Xolmirzayeva Diyora Xatamboy qizi | 45 |
| 11. | ANALYSIS OF TRANSPORT VEHICLES' MOBILITY, MANEUVERABILITY, SUITABILITY FOR CARRYING DIFFERENT LOADS<br>USMONOV AZIZBEK XXX | 48 |
| 12. | KONSEPT ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKNING ASOSIY ELEMENTI SIFATIDA<br>Maxmudova Muniraxon Badriddin qizi | 52 |

| | | |
|---|---|---|
| 13. | Nutqiy janrlar tadqiqiga oid ayrim mulohazalar<br><br>Ismoilova Odinaxon A'zamjon qizi | 57 |
| 14. | 70-80-YILLAR SHE'RIYATIDA SAN'ATNING MOHIYATI, VAZIFALARI HAQIDAGI SHE'RLAR KO'LAMINING ORTIB BORISHI VA SABABLARI<br>Maxmudov Sardorbek | 61 |